

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI
MUSIQALI, DRAMATIK TEATR VA KINO SAN‘ATI KAFEDRASI**

USNATOV RASHID JAKSILIKOVICH

BADIIY ASARNING SAXNAVIY TALQINI VA TAXLILI

Aktyorlik san‘ati (turlari bo‘yicha) magistratura ta‘lim yo‘nalishlari
uchun darslik

TOSHKENT – 2022

**R. Usnatov, “Badiiy asarning saxnaviy talqini va taxlili” darslik
2022. 184 b.**

Mazkur darslikda asar tanlash, inssenirovka qilish, muallif tomonidan aytilajak bo‘lgan fikr, har bir yosh ijodkor talaba bilan ishlash jarayonida yuzaga kelgan muomma, rejissyor talqini va tahlili borasida amaliy va nazariy so‘z yuritiladi. Musiqali teatr aktyorligi yo‘nalishida dramaturgiya bilan musiqiy materialning o‘zaro uyg‘unlashuvi, musiqali teatr aktyorida dramatik mahorat bilan ovoz imkoiyatlarini orasidagi mutanosiblik, rejissuradagi o‘ziga xos muammolar va ularning yechimi to‘g‘risida muallif o‘z fikrlarini o‘rtaga tashlagan.

Risolada organik hatti-harakatning elementlari (tarkibiy qismlari) bayon etilgan bo‘lib, ularni o‘zlashtirish kuylovchi-aktyor tarbiyalashda zaruriy asosdir. Muallif har bir elementni nazariy asoslab, unga ishlov beribgina qolmay, amalda qo‘llash uchun ko‘rsatmalar ham beradi.

Ma’sul muharrir:

Sh.B.MUXAMMADIYEV – Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati
kafedrası mudiri, dosent

Taqrizchilar:

N.Q.QOBILOV – Mexnat shuxrati ordeni sohibi, Musiqali, dramatik
teatr va kino san’ati kafedrası professori

A.S.BEKJONOV – O‘zbekiston respublikasida xizmat ko‘rsatgan
artist, Muqumiyy nomidagi o‘zbek davlat musiqali
teatr direktori

***O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil
13- maydagi 166-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsia etilgan.***

KIRISH

Badiiy asar talqini va tahlili fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar – talabalar turli yo'nalishlardagi bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Mazkur fanda talaba asar asosida ssenariysini yaratish, rejissyorlarcha yondoshish, tadbirlarni maqsadli tashkil etish, talqin qilish va tahlil o'tkazish, sahnalashtirish borasidagi tushuncha, tasavvurlarga ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridagi barcha teatrlar musiqiy teatr maqomi bilan yuritiladi. Poytaxtdagi Muqimiy nomidagi musiqali teatr o'z faoliyati bilan karvonboshisi, barcha teatrlar uchun laboratoriya hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi"ning ustivor yo'nalishlarida ham aynan insonlarning manfaatlari uchun xizmat qilish, ularning ehtiyojlarini qondirish muhim strategik masala sifatida qaratilganligi bu sohalarda hali qilinishi lozim bo'lgan ishlarning ko'pligidan dalolat berib turibdi.

Teatr san'ati maktabi hozirgacha o'z vazifasini bajarib kelmoqda. Chunki bu maktabda musiqali teatr yo'nalishida san'at allomalari R.Hamrayev, SH.Magzumova, V.Navrotskiy, O.Abdurazzaqov, M.Fattaxov, I.Isayeva, N Nikiforova, A Sayfutdinov, U Zufarov, V.Volodchenko, G Muhamedova va hozirda N Qobilov, B Nazarov, E.Yorbekov, R.Usnatov, O.Dadamirzayev, SH.Muxammadiyev va boshqa yosh izdosh o'qituvchi shogirdlar saboq berib keladilar.

Musiqali drama teatrlarining ijodiy faoliyatlari munaqqidlar va teatr mutaxassislari tomonidan keng o'rganilgan va tahlil etilgan. Bu jarayon hozirda ham sezilarli davom etmoqda. Respublikaning yetakchi olimlari va munaqqidlar musiqali teatrd dramaturgiya, rejissura, bastakorlik san'ati, aktyor ijrochiligi muammolari haqida chuqur va atroflicha fikr mulohazalarini bayon etganlar.

Baddiy asarning saxnaviy talqini va tahlili fanidan asosiy ko'zlangan maqsad musiqali teatrd dramaturgiya bilan musiqiy materialning o'zaro uyg'unlashuvi, musiqali teatr aktyorida dramatik mahorat bilan ovoz imkoiyatlari orasidagi mutanosiblik, rejissuradagi

o'ziga xos muammolar uzoq yillardan beri muhokama etilib, tahlil qilinayotgan bo'lsada, bu borada o'z yechimini kutayotgan ijodiy masalalar talaygina topiladi.

Zamonaviy o'zbek teatrida aktyor ijrochiligi muammosi eng dolzarb muammo sifatida ko'zga tashlanmoqda. O'zbek teatrida aktyor ijrochiligi haqida gap borganda Lutfixonim Sarimsoqova, Soib Xujayev, Hamza Umarov, Maxmudjon G'ofurov, Abdug'ofir Abduraxmonov, Sur'at Po'latov, Shahodat Rahimova, Abdurauf Boltayev, E'tibor Jalilova va boshqa qator iste'dodlarning o'rni nihoyatda bilinayotgani bot-bot ta'kidlanmoqda. Buning sababi, hozirgi zamonaviy musiqali teatrdan kechayotgan qator yutug' va kamchiliklarni o'rganishda avvalo aktyorlar muommasini hal qilish zaruriyati bilan izohlanadi. Qolaversa Nemirovich-Danchenko aytganidek "Dunyodagi eng yaxshi binoni quring, eng yaxshi rejissyorni taklif qiling, lekin sahnaga aktyor chiqmas ekan spektakl boshlanmaydi".

Demak, spektaklning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun asosiy e'tiborni aktyorga qaratmoq lozim. Aktyor – bu shunchaki rolni ijro etuvchi shaxs bo'lmay, balki qo'lga olingan asardagi konkret insonning xarakterini, obrazni bunyod etuvchi ijodkordir.

Shunday ekan, aktyorlik kasbini o'tamagan rejissyor, mukammal spektakllarni sahnalashtirishda ayrim muammolarga duch keladi. Chunki sahnalashtirayotgan spektaklning biror bir obrazini ijodkor aktyorlar tomonidan ijro etish jarayonida rejissyor aktyordan mukammal talqinini talab qilish uchun avvalo o'zi mukammal darajada ijro etish qobiliyatiga ega bo'lish kerak. Axir aytadilar-ku, "dutor cholishni bilmagan inson qanday qilib soz cholishni o'rgatadi" deb. Sababi, gohida yosh aktyorlar oyoqqa turib ketgunga qadar rejissyorning talabi, Ya'ni rol mohiyati, qahromonning ichki holati, xarakteri, avtor tomonidan berilgan shart sharoit, rejissyor tomonidan qo'yilgan vazifaga birdaniga kirishib ketishi va tomoshobinga yetkazib berishda rejissyorning talabchanlik mahorati zarurdir. Balki shundan keyin yoshlar o'z yo'llarini topib ketar. Chunki professional rejissyor, u ham pedagogdur.

Musiqiy teatrning tamal toshini qo'ygan, asrlar davomida bu janr, teatrning rivojlanish yo'llarida, bosqichlarida katta xizmat ko'rsatgan,

milliy madaniyatimiz tarixida muborak ismi-shariflari muxrlangan san'atkorlar faoliyatiga bag'ishlangan risolalar talaygina. Ana shunday risola va adabiyotlarga suyangan holda, musiqiy teatr aktyorligi ijrochiligida, mahorat bobida shakllangan an'analarni o'rganish va tadqiq etish kerak. Sababi milliy an'analarsiz faoliyat yurituvchi ijodiy-jamoani tasavvur qilib bo'lmaydi. Rejissyor ham, aktyor ham ongli yoki ongsiz ravishda kimdandir, nimadandir ijodiy ozuqlanishi turgan gap. Har qanday yangilik ham qandaydir sinalgan ildizlarga tayangan bo'lishi ayondir.

Ayniqsa, teatr san'atida, "ustoz-shogird" uslubi azal-azaldan mavjud. Bu hozir ham u yoki bu darajada davom etib kelayotganligi ustozlar faoliyatini o'rganish, ular san'atining qay jihatlari davom ettirilayotgani, yoki asossiz unut bo'layotganligini anglash, zamonaviy musiqiy teatr faoliyati uchun nihoyatda zarur.

O'zbek musiqali teatrining klassik asarlari hisoblanadigan "Oshiq G'arib", "Farxod va Shirin", "Tohir va Zuxra", "Layli va Majnun", "Ravshan va Zulxumor", "Alpomish", "Halima", "Nurxon", "Oltin ko'l", "Nodirabegim" kabi spektakllar, ijrochilarning yangi avlodi kuchi bilan yangitdan sahnalashtirilar ekan, aktyorlik mahoratida shakllangan an'analalar va ularni yangi ma'naviy-estetik sharoitda qo'llanilishida, muammolar qalqib chiqaveradi. XX asrning 20-yillaridan e'tiboran, musiqiy teatr spektakllari xalq orasida keng shuhrat qozonishida dramaturglar, bastakorlar, rejissyor va aktyorlar faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog'lik, bir-birini to'ldirib, o'zaro hamkorlikda, bir-birini to'ldiruvchi san'atlar sintezini namoyish qilgan. Sababi yuqorida nomlari keltirilgan spektakllar aynan shunday xususiyatga ega bo'lgan. Lekin ularni xalq orasida beqiyos shuhrat topishi, haqiqiy milliy teatr san'ati sifatida e'tirof etilishining bosh sababchisi kuylovchi aktyor bo'lgan. Yaxshi **pe'sa**, yaxshi rejissura, yaxshi musiqa ham tomoshabinga, aktyor orqali, uning ijrosining mukammalligi orqali namoyon bo'ladi.

Shu bois, biz quyida risolada ustozlar an'analarga suyangan holda guruhda qilingan ijodiy jarayonni qamrab olishga harakat qildik.

Institut doirasida yaqin orada diplom ishi uchun olingan "Bobur sog'inchi", T.To'la asari, F.Olimov musiqasi "Nodirabegim", N.Qobilov asari, F.Olimov musiqasi "Na malakman na farishta", T.Murod asari,

B.Lutfullayev musiqasi “Oydinda yurgan odamlar” kabi sahna asarlarida har bir ustozning o‘ziga xos uslubi, yondoshishi, talabalar organikasini ochish va rol ustida musitaqil ishlash, o‘ziga xos rejissurasi orqali yaxlit, hamma bop sahna asari dunyoga keldi. Ustozlar tomonida O‘quv teatrida talabalar ijrosidagi o‘ziga xos uslubda sahna asarlari yaratdilar.

Biz yuqoridagi ustozlar an‘analaridan foydalangan holda, ushbu sahna asariga qo‘l urar ekanmiz guruh imkoniyatidan kelib chiqib ishni rejalashtirdik. Avvalo olingan asarni chuqur o‘zlashtirdik. Uni sahnaviy variantini yaratdik. Talabalarning uch yil davomida olgan aktyorlik saboqlarini o‘zlashtirishlariga qarab rol tahsimoti qilindi. O‘quv jarayoni bo‘lgani uchun har bir talaba ijodkorning imkoniyati darajasiga qarab u yoki bu personajlarni sinab ko‘rdik.

O‘quv jarayonida har bir talaba ijodkordan personaj xarakterini ochishidagi urinishlarini qayta-qayta sinab ko‘rdik.

Talaba ijodkorlarni sahnada berilgan sharoitda xarakat qilishi va o‘zining improvizatsion xarakatlariga asoslanib sahnaga chiqishga tayyorgarlik ko‘rildi. Kuylovchi – aktyorlarni ham kuylashi ham nutqidagi ifodasi, hamda sahnaviy harakatlarini mujassamlash uchun barcha ustozlar bilan birgalikda ijodiy jarayonni o‘tkazdik.

Musiqali teatr aktyorlarining ijrochilik faoliyatida eng asosiysi, badiiy asarning talqini va tahlilini musiqiy teatr aktyorlarini tayyorlash jarayonida ustoz san‘atkor murabbiylarning an‘analaridan foydalana bilish, ularga ijodiy yondoshuv tizimini shakllantirish zarur deb o‘ylayman. Albatta, buyuklar ijodidagi an‘analardan foydalanganda ko‘r-ko‘rona taqlid qilish bilan emas. Balki buyuk, ustoz ijodkorlarga xos bo‘lgan san‘atga sadoqat, fidoyilik, ro‘l ustida ishlash sir-sinoatlarini o‘rganib, o‘zining shaxsiy imkoniyatlariga tatbiq etabilishdir. Musiqiy teatr aktyori ijrochiligida ariya, duet va triolar, dramatik xatti-harakatning tug‘ilishiga xizmat qilishi, Ya’ni kuyning ichki dardiga, qo‘shiqni kuylashda personajning sahnaviy holatlari, butun spektaklning ruxi bilan uyg‘unligi, sintiziga erishish haqiqiy professionallik hisoblanadi.

Shu bois mashg‘ulotlar, ustoz murabbiylar an‘analariga e’tibor bergan holda olib borildi. Avvalo sahnada aktyorni fikrlashga, so‘z mohiyatini ochishga, nima demoqchi ekanligini va qilayotgan ishi nima

maqsad uchun kerak, kabi ko'nikmalarga javob izladik. Yondoshishlar turlicha bo'ldi, ammo sahna haqiqatiga erishish va g'oya ifodasida mantiqqa asoslanishimiz, qilinayotgan ishimizni ro'yobga chiqishida asos bo'ldi.

“Biz bugungi kunda ta'lim – tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik sana'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalaridagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bisqichga ko'tarishimiz zarur” deb ta'kidlaydi¹

Demak-ki birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek zamon talablari asosida talabalarni shakillantirishimiz va yetuk mutaxassis ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Shu bois musiqali teatr aktyorligi guruhida rejalashtirilgan va amaliy mashg'ulotlarda o'z ifodasini topgan T.Murod asari, B.Lutfullayev musiqasi “Oydinda yurgan odamlar” qissasi asosida tarbiyalashni nazarda tutdik.

Aktyorlik mahorati ko'nikmalari, sahna nutqining badiiy so'z mahoratiga erishishga qaratildi. Har bir talabaning ovoz, mahorat, saxnaviy ko'rinish, nutqiy imkoniyatlaridan kelib chiqib personajlarda sinab ko'rdik. U yoki bu meyorda qobiliyatga ega talabalar qo'yilgan maqsadlar sari ishlay boshladilar.

Respublikamizda deyarli barcha teatrlar musiqali teatr maqomini olgan. Ammo barcha teatr repertuarlariga nazar tashlansa, musiqiy janrda ijod qiladigan yoki qilayotganlar barmoq bilan sanarli holatda. Respublikamizning otaxon teatri butun respublika teatrlari laboratoriyasi xisoblangan Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida ham ahvol ancha achinarli. Shu bois hozirgi davrda teatr ijodkorlarini avlodini tarbiyalashda biz va biz kabi murabbiylarning mashaqatli mehnat jarayonlarini zikr etmay ilojimiz yo'q.

Bu borada qariyb yarim asrdan o'lroq vaqtdan buyon teatr san'ati mutaxassislarini tayorlab kelayotgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining jonkuyar, fidoiy, igna bilan qudiq qozishdek

¹ I A Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” II bob. – T., 2009 y.

mashaqqatli mehnat qiluvchi murabbiylari nafaqat bizning Respublikamizga balki butun dunyo teatr san'atiga mashhur bo'lgan ijodkorlar tayorlab kelmoqdalar. Bu ustozlar o'zlari yaratgan haqiqiy shogirdlari bilan maqtansa arziydi. Biz yosh mutahassislar, mehri daryo professor o'qituvchilarga boshimiz yerga tekkuncha ta'zim qilsang ham kam. Shu o'tgan davr maboynida drama, qo'g'irchoq teatrlari qatorida "musiqali teatr san'ati" xalqning olqish, hurmatiga sazovar bo'lgan, o'z usuli, o'z ifoda vositalari, o'ziga xos izlanish, shakllanish va rivojlanish yo'llarini bosib o'tgan san'at ijodkorlarini tarbiyaladi.

Shulardan kelib chiqqan holda ushbu qo'llanmaning muallifi ham musiqali teatr aktyorligi mutaxassisligi bo'yicha o'z tajribalariga hamda ustoz murabbiylarning ko'magida ushbu qo'llanmaga qo'l urdi. Unda talabalarning diplom oldi va diplom ishlari ustida qilingan ishlarni baholi qudrat aks ettirishga harakat qilingan. Quydagi o'quv qullanmaning san'at va madaniyat institutlarida mutahassislik fanlari mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Bunda ijodiy jamoani shakllanishi va ularning aktyor ijodkorlarni tarbiyalashdagi uslubiyat aks ettiriladi. Zero mustaqillik inom etgan har bir ijodkorning komil topishidagi shart-sharoitni qadriga yetish va undan o'zligini anglashdek vazifani bajarish va bunda har bir murabbiy-ustozlarning ma'sulligini yanada talab qilinishidir.

I BOB. ASAR MAVZUSI VA UNING DOLZARBLIGINI BELGILASH

1.1 K.S.Stanislavskiy sistemasidagi aktyorlar tarbiyasi va roli bo'yicha tahlil.

N.M.Gorchakov K.S.Stanislavskiyning so'zlarini qayd qilib: «Mening vazifam sizlarni aktyorlarning va rejissyorlarning og'ir va mashaqqatli mehnat qilishiga o'rgatish». Buning uchun aktyor va rejissyorning izlanish jarayoni azob va uqubatli jarayon bo'lib ijodning quvonchli onlarini kuylash emas unga intilish, izlanish va og'ir mehnatlar oqibatida erishish demakdir. Bizning mehnatimiz quvonchli onlarni anglash, ijodiy izlanish jarayonida o'z hayotimizni sevimli ishimiz Ya'ni sahnaviy hayotga bag'ishlangan va mehnat orqasida muvaffaqiyatga erishgan taqdirdagina ijodning quvonchli onlarini xis etamiz. Bizning mehnatimizning quvonchli onlari spektakl sahnalashtirilganda, rolning muvaffaqiyatli ijrosida, zaldagi tomoshabinlar bilan ijodiy muloqatga kirishgan paytlarda va tomoshabinning ongiga va yuragiga ta'sir qilgan onlarda ro'y beradi. Teatr chuqur g'oyaviy mazmunga ega murakkab mavzular orqali tomoshabinning ma'naviy shakllanishiga xizmat qiladigan ulug' dargohdir.

K.S.Stanislavskiy tomonidan ishlangan va shakllantirilgan aktyorlik mahorati fani oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlashda nazariy va metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Aktyor sahnada talqin etayotgan badiiy obrazlarida «odam ruhiy hayoti» ni yaratsin, deydi Stanislavskiy. Mana shu qonunga amal qilib mahorat pedagogi talabaning ijodiy fantaziyasini obrazning tashqi va ichki sifatlarini izlashga qaratmog'i lozim. Bu ish oqibatda, rol ustidagi ijodiy jarayonning natijasi sifatida ijrochini butinlay obraz qobig'iga kirishga olib keladi.

Aktyor tomoshabinga dramaturg, kompozitorning g'oyaviy fikrini yetkaza bilishi kerak. Bu vazifani u rolning haqqoniy va yorqin talqini bilan bajaradi.

Institutda talabani aktyorlik san'ati chamaniga yetaklashda avvalo unga san'at qonunlarining alifbosini o'rgatishdan boshlaymiz. K.S.Stanislavskiy tomonidan ko'p yillik tajribalarning natijasi o'laroq

tayyorlangan «Stanislavskiy sistemasi» deb nomlangan ilm, zamonaviy aktyorlik san'ati maktabi uchun dasturilamaldir. Bunda sahna nazariyasi, metodikasi, artist texnikasi mujassam bo'lib, u aktyor va rejissyor san'atini o'rganishda asosiy qo'llanma hisoblanadi.

Biz avval aktyorlik yo'nalishining barcha bo'limlarida («dramatik teatr va kino aktyori», «musiqali teatr aktyori», «qo'g'irchoq teatri aktyori», «estrada aktyori va hokaza») aktyor texnikasini sistema bo'yicha o'rgatamiz. Bu sohani aktyorning o'z ustidagi ishi deb nomlanadi. So'ngra metodika ustida o'quv davom etadi. Bu aktyorning rol ustidagi ishi deb nomlanadi. Bularning har ikkisi, albatta, bir-biriga chambarchas bog'liqligini unutmasligimiz kerak.

Biz, o'quv jarayonini san'at qonunlarini alifbosidan boshlanadi, dedik. Bu ish, o'sha aytganimiz, sistema asosida uning oddiy elementlarini talabaga singdirishdan tortib, oddiy mashqlar, predmetli va predmetsiz mashqlar, kuzatuv mashqlari, tanani yumshatish mashqlari, diqqat uchun mashqlar, partnyorni ko'rish, his qilish, so'z bilan ishlash, etyud ustida ishlash, parchalarga o'tish, ariyaning tug'ilishi va nihoyat rol ustidagi ishgacha keladi. Oddiy elementlarni o'rganish ham oddiy mashqlardan, so'ng qiyinroq mashq va har bir elementni singdirishda mashqlar etyudlarga, etyudlar esa pesaning parchalariga, so'ngra aktyorlarga va nihoyat, spektakl ustida ishlashgacha olib keladi.

Mavzuimiz musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalash masalasiga bag'ishlanganligi uchun biz drama va musiqali drama teatrlarida aktyorlik san'ati tabiatining o'zgachaligi, o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi, ko'zga tashlanadi degan savolga javob topishimiz lozim.

Avvalambor, aktyorlik san'ati doimiy harakatlar san'ati ekanligi bilan umumiydir, dramatik teatrdan bu faqat psixofizik harakat bo'lsa, musiqali teatrdan unga yana musiqa, vokal xatti-harakati qo'shiladi. Ko'rinadiki, bu drama aktyori va musiqali teatr aktyori o'rtasidagi birinchi va eng muhim xususiyatdir. Lekin shuni ta'kidlash joizki, muallif o'z tasiri bilan aktyorlik va musiqali teatr aktyorligi o'rtasiga «Xitoy devori» dek to'siq qo'yimoqchi emas, faqat ularning farqli va o'xshash jihatlarini ko'rsatmoqchi, xolos.

Dramatik va musiqali drama teatrlarning ildizi bir, u ham bo'lsa xalq ijodi. Ularda borliqni haqqoniy ifodalash prinsipini amalga oshiruvchi manba ham bir, Ya'ni aktyor. Bu teatrlarda aktyorning sahnada yashash uslubi ham mavjud. Ularning asosini ma'lum maqsadga qaratilgan yagona psixofizik jarayon bo'lmish xatti-harakat tashkil etadi. Insonning botiniy hayotini sahnada ochish yo'li ham bir, hatti-harakatlar tahlili. Bularning barchasi aktyorlik san'ati metodining qonunlari hamda realistik sahna san'atlari uchun bir va o'ziga xos deyishga imkon beradi. Bu qonuniyatlar K.S.Stanislavskiyning drama va musiqali teatrlarga bag'ishlangan maqola, kuzatuv va amaliy mashg'ulotlarida bayon qilingan va asoslangan. Ammo yuqorida ko'rsatilganday, umumiy qonunlardan tashqari, musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalashning o'ziga xos farqli tomonlari ham bor. Musiqali spektakldagi sahnaviy xatti-harakat – bu musiqa, vokal sahnaviy xatti-harakatdir. Musiqali spektaklda aktyorlik ijodi, uning xatti-harakatiga bog'liq bo'lgan jihatlari musiqa bilan oldindan belgilab qo'yiladi. «Musiqa bizga tuyg'ular mantig'ini ochib beradi. Uning yordamida xatti-harakat mantig'i topiladi va mana shu xatti-harakatlarni bajara borib biz ijod qilish paytida musiqa bergan tuyg'ularga qaytamiz».²

«Musiqani tinglab va unga singdirilgan tuyg'ular mantig'ini o'zining sahnaviy xatti-harakatiga aylantira bilish qobiliyatini musiqali teatr aktyori ijodiga xos muhim spetsifik xususiyatlardan biri», deb ta'kidlaydi sahna san'ati reformatori.³

Xatti-harakat musiqa belgilab bergan vaqt qonuniyatlariga bo'ysundirilganligi – musiqali teatr aktyori ijodiga xos bo'lgan ikkinchi muxim spetsifik xususiyatdir.

Musiqa bilan bog'langan drama teatrining aktyori pesa jarayonida u yoki bu vazifani bajarar ekan, turli xil moslanishlardan foydalangan holda, xilma-xil xatti-harakatlarni mantiqan, ketma-ket va maqsadga muvofiq amalga oshirishi mumkin.

Musiqali spektaklning vazifalarini ochishda sahnaviy shakl ham alohida ahamiyatga ega. Har qanday musiqali spektaklni plastik ifodasiz tasavvur qilish qiyin. Uning vaqt birligi ichida mavjudligi musiqaviy

² Кристи Работа Станиславского в оперном театре. –М.: Искусство, 1969, с.208.

³ Так же, с.214.

shakl, qonun-qoidalariga bo'ysunadi: Raqs va musiqali temporitmik qurilmani umumiy qonun-qoidalari birlashtiradi, kulminatsion nuqtalarning birligi esa ohang va plastik yo'llar rivojining birligidir, Ya'ni raqsning «tomoshaviy musiqa»day ifodalanganligidadir. Balet spektakli va musiqali dramatik spektakldagi raqs har xil vazifani bajaradi. Agar klassik raqsning muhim bir vazifasi inson tuyg'ularini, kechinma va kayfiyatlarini harakatlar orqali ifodalab berishdan iborat bo'lsa, musiqali-dramatik spektaklda raqsning vazifasi, avvalom bor, musiqaga singdirilgan to'qnashuvni psixologik jihatdan asoslangan holda xatti-harakatlar yordamida ochib berishdan iborat.

Musiqali-dramatik spektakl raqsida aktyorlik mahoratining tabiati qanday bo'lishi kerak?

Uning tashqi ko'rinishi va plastik shaklini qisman aktyorning so'zlariga o'xshatish mumkin. Aktyor kechinma tuyg'ularini ifodalovchi ichki xatti-harakatlarni asoslashi lozim. Aktyor raqsning tug'ilishiga asos bo'lgan oliy maqsad va berilgan shart-sharoitdan zavqlanishi kerak, raqsning ichki monologi va uning ma'nosini tushunishi lozim. Hayotiy haqiqatning tug'ilishi uchun aktyor texnika va gavda plastikasini chuqur egallashi lozim, chunki bu aktyorning diqqatni asosiy narsaga – musiqaning ichki mazmuni bilan texnikani bir-biriga bog'lashga jalb etadi. «Asarning ichki ma'nosini ochish uchun uning ichki olamiga chuqurroq razm solish lozim. Shunday raqqosalar borki, ular raqs tushayotib qo'llarini silkitish, o'zlariga mahliyo qilish bilan band bo'lishadi. Ulardagi harakat-plastikasi quruq va yuzaki bo'lib qoladi. Ular o'z raqsining ichki mazmuniga e'tibor bermagan holda, ma'nosiz shakllar tariqasida o'rganishadi».⁴

Musiqiy teatr aktyorligi san'ati o'qituvchilari talabalarga plastikani quruqdan-quruq o'rgatmay, aksincha, uni o'zlarining tabiatiga, fazilatiga, o'zligiga aylantirishlari kerakligini uqtirishlari lozim. Sahnaviy xatti-harakat uning plastik shakli orqali gavdalandirilishining uzluksizlik ekanligini belgilab, mutaxassislar aktyorlik mahorati va plastik ifodasini o'rganishning bir-biriga bog'liqligini ta'kidlab o'tadilar. Musiqali teatr aktyori ijodining eng asosiy xususiyatlaridan biri spektakl

⁴ Станиславский К.С. Общий сборник. Т.8. –М.: Искусство, 1953.

qahramonlarining ichki psixologik holatini xoreografik shaklda raqslar bilan ifodalab berishdir.

Shunday qilib, musiqa sahnaviy xatti-harakatning dramatik qurilmasini aniqlab beradi. Bundan tashqari, u his-tuyg'ularni ma'lum bir mantig'ini ham o'z ichiga oladi. Musiqali teatrning aktyorlik mahorati avvalom bor, tuyg'ular mantig'ini egallashga va ularning musiqaviy xatti-harakatlar orqali tahlil qilish yo'li bilan xatti-harakatlar mantig'iga ko'chirishga qaratilgan. Musiqaning o'kuv jarayoniga kiritilishi, har bir dars, har bir mashqni, musiqani xatti-harakat orqali tahlil qila bilish vazifasi shundan kelib chiqadi.

Kuylash – tabiiy, badiiy jarayon bo'lib, u insonning meyoridagi psixofizik holatida bo'lishi mumkin. Musiqa kuylovchidan tovushini ravon jaranglashini, zalning har bir joyida eshutilishini talab qilish bilan birgalikda, kuylovchidan usulni saqlagan holda ijro etishni, o'z vaqtida boshlashni va orkestrdan ajralmasligini ham talab qiladi. Kuylovchi aktyor nafasni topish uchun o'zining harakatlarini ham chegaralashga majbur; u ko'z yoshlarini to'kib haqiqatan yig'lay olmaydi, chunki bu holat uning ovozini bo'g'ib qo'yadi: u chin dildan qah-qah otib kula olmaydi, chunki kulgu kuylashga halaqit qiladi.

Orkestr ovozini yorib o'tish uchun, kuylovchi aktyor o'z ovozini tomosha zaliga yo'naltirishi shart. Orkestrdan ajralib qolmaslik uchun dirijyorni ko'rib turish lozim. Bularning hammasi kuylovchi aktyor sahnada beharakat turib, dirijyorga qarab olib ashula aytsa, yuqorida aytilgan vazifalar osongina amalga oshadi. Shu yo'l bilan yuksak ovoz jarangiga ham aniq vokal ijrosiga ham erishish mumkin.

Ammo bunday sharoitda kuylovchi aktyorga aylanmaydi, spektakl esa oddiy konsertga aylanadi. Kuylovchi aktyor xatti-harakatda kuylaganligi va uning qo'shig'ining o'zida ham xatti-harakat bo'lganligi sababli u vokal ijrosi talablari bilan ham, sahna talablari bilan ham hisoblashishga majbur. Sahnada talablari esa aktyordan erkin harakat qilishni, qulay va noqulay bo'lgan turli holatlarda kuylashni, dirijyor bilan emas, partnyor bilan muomalada bo'lishni, xatti-harakatlarini nafas olishga qulaylik qidirishda emas, balki, mantiq bilan fikrlashni talab qiladi.

Harakat tufayli sahnada nafas notekis olinishi, boshni orqaga tashlab kuylash sababli, ovoz xunuk va yoqimsiz eshitilishi mumkin.

Kuylovchi qanchalik ramkadan uzoqlashsa, shunchalik zalda ovoz bo'sh bo'lib eshitiladi. Sahna talablari musiqa bilan qarama-qarshi bo'lib qolgandek tuyuladi. Agar musiqa bilan hisoblashmasdan o'z sahnaviy xatti-harakatlarini dramatik xatti-harakatlarning mantig'iga bo'ysundirsak, unda bu talablarni oson bajarish mumkin. Lekin bu holda aktyor kuylovchiga aylana olmaydi. Kuylovchining tovushi notekis, har xil, doimo orkestrdan ajralib qoladi. Aktyor va kuylovchi o'rtasida qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Buni bartaraf etish mumkinmi? Ha, mumkin. Sahnaviy vokal mahorati aynan shunga qaratilgan. Kuylovchi aktyor musiqani deb sahna haqiqatidan, sahnaviy haqiqat deb musiqadan voz kechmay, aksincha, ularni tabiiy ravishda bir-biriga uyg'unlashtirsagina, haqiqiy sahnaviy vokal obrazi paydo bo'ladi. Bunda musiqa va sahna bir-biriga halaqit bermaydi, balki bir-birini to'ldirib boradi. Bunday natijaga qo'shiqqa xatti-harakat kiritish, sahnaviy ijroga esa, musiqaviylik kiritish orqali erishish mumkin. Musiqa va dramaning bir-biriga birikib, yagona, yaxlit asarga aylanishiga asos, kuylashning xatti-harakatliligi va xatti-harakatning musiqaviyligidir. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida badiiy tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy va badiiylashgan tadbirlar tashkil etish va bu orqali yoshlarni tarbiyalash –hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Savol va topshiriqlar

- 1.Stanslavskiy sistemasi qanday tamoyillarga bo'linadi?
2. Stanslavskiy sistemasi ketma-ketlik asosida qaysi mavzular orqali tushuntiriladi?
- 3.Oliy maqsad nima?

1.2 Teatr san'atining o'ziga hos xususiyatlari

Sahnaviy haqiqat bu aktyor tomonidan yaratiladigan haqiqatdir. Shuning uchun ham teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari Mannon Uyg'ur ijodi avvalombor hayot haqiqatga asoslangan. Teatrda asosan o'ziga xoslik spektakil zahirida mana shunday ijodiy hamkorlik borligiga amin bo'lamiz. Demak rejissior, aktyor, dramaturg singari senograf ham bo'lajak spektakl taqdiri uchun birdek ma'suliyatli, haqli ravishda sahna asari yaratuvchilaridan biridir. Dekoratsiyaning asosiy elementlaridan biri–bu chiroq. Avvallari teatrdan chiroqdan shunchaki yoritish vositasi sifatida foydalanilgan bo'lsa hozirga kelib yoritish uskunolari muhim badiiy ahamiyat kasb etadi. Chunki davr va makonni ko'rsatish, aktyor ruhiy holatini ifodalashda chiroqlar hal qiluvchi o'ringa ega. Asar mazmuni, voqealar ruhiyatiga nomuvofiq detallar qo'llanilishi, teatrning texnik imkoniyatlaridan to'la foydalanmaslik, ijodiy hamkorlik sustligi ko'p hollarda spektakl saviyasini tushirib qoymoqda. Shubhasiz spektakl muvafaqiyatini ta'minlagan eng muhim omillardan dramaturg materialining puxtaligi, adabiy asosning mustahkamligi, qahramonlar tili, matn puxta desak ayni haqiqatdir.

Sahna san'atida barcha narsa bir maqsadga, g'oyaga qaratilgan bo'lishi kerak. Teatr san'atida g'oyani toppish va to'g'ri yo'naltirish bu murakkab jarayon. Teatr sirli ijod sohasi, hoh u musiqali teatr bo'lsin, hoh dramatik teatr bo'lsin, baribir uning obekti – bu aktyordir.

Aynan musiqali teatrdan nafaqat psixo-fizik harakat qiluvchi, balki shu harakatga yana musiqiy temporitm, kuchli ovoz, musiqiy savodga ega bo'lgan aktyorlar kerak.

Risolaning kirish qismida viloyat musiqali teatrlarining muammolari haqida biroz to'xtalishga harakat qilingan edi. Mavjud musiqali teatrlardagi ahvolning tangligi jamoalar badiiy rahbarlarini yengil-yelpi, maishiy plandagi komediyalarni sahnalashtirishga majbur qilmoqda.

Musiqali teatr aktyorlarini tayyorlashdagi muammolar borasida quyidagi takliflarni bildirish mumkin.

O'qish davomida «Musiqali teatr aktyorlari» uchun 1 kurslarda vokal darsi 2-3-4 kurslarda esa ko'proq maqom darsi o'tilishi kerak. Chunki musiqali teatrdan ijro etiladigan ariyalar operadan farq qiladi. Umuman

vokal va maqomda ovoz va nafasni tarbiyalash maktabi bir-biriga juda ham yaqin. Lekin ijroviy uslublarida farq qiladi. Shu nuqtai nazardan maqom ijrochiligiga ko'proq e'tibor qaratmoq darkor.

Aktyorlik mahoratida vokal mashqi jarayoni Musiqali teatr aktyorligi



bo'limi talabalari uchun birinchi o'quv yilini asosiy talablari – aktyorlik mahoratining asosiy muammolarini belgilovchi suhbatlardan Ya'ni nazariy jixatga ko'proq e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Suhbatlar bilan bir vaqtda amaliy darslar ham boshlanadi.

Birinchi kurs talabalari aktyorlik mahorati san'atida berilgan shart-sharoitda tabiiy xatti-harakat qilish ekanligini anglashi zarur. Buning uchun aktyorlik mahoratining ilk poydevori, Ya'ni diqqat, sahnaviy erkinlik, berilgan shart-sharoit, kuzatuvchanlik, maqsad, munosabat, muloqot, baholash, tasavvur, badiiy xayolat kabi elementlarni o'zlashtiradi. Etyud ustida ishlash jarayonida voqeani mantiqan to'g'ri to'zgan holda, ijod qilish, uning obrazlilik, badiiylik va mohiyatini ssenariyda aks etilishiga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Ayniqsa uning badiiy saviyasiga e'tibor berilganda g'oyaviylik prinsiplari bosh mezon ekanligini unutmaslik zarur.

Badiiylik ikki mustaqil bo'lakka – mazmunga va shaklga bo'linishi mumkin emas. Ular o'zaro bir-biriga yaqin birikmadir. Mazmunsiz shakl, shaklsiz mazmun bo'lishi mumkin emas. Faqatgina bularning har biri alohida o'ziga xos hususiyatga ega, shuning uchun ham alohida taxlil etiladi. Ularni bir-biridan ajratib talqin etish shartli xodisadir. Badiiylik mazmun va shaklning bir butun g'oyasidir, shuning uchun ham badiiylikda ifoda etiladigan fikrlarni oddiy so'zlar bilan ifoda etish mumkin emas. Badiiylikda tasvirlangan xarakterlar tasvir etilgan xayotiy va g'oyaviy mazmunga nisbatan shakl xisoblanadi. Ssenariyda tasvir etilgan voqealar, personajlar, obrazlar, xarakterlar, badiiylikda mazmunni shakli bo'lishi bilan birga o'sha

mazmun va shaklning yaxlit birikmasidir. Xulosa qilib aytganda ssenariy tuzishda badiiylikni yetakchi ijod maxsuli deb tushunmoq kerak va shakl mazmun birikmalari, badiiylikni serqirra qo'rinishlarining asosini tashkil etadi degan qarorga kelishi tabiiydir.

Ilk bosqich aktyorlik mahorati elementlari:

Diqqat uchun bir va ikki ovozli xor qo'shiqlarida taburetka mashqlari;

Ritmik mashqlar;

Musika jo'rligida plastik mashqlar;

Buyumsiz xatti-harakatlar;

Buyumlarni jonlantirish;

Kuzatuvlar;

Juftlik kuzatuvlar;

Etyudga o'tish mashqlari;

Xotiraga asoslangan mashqlarda so'zning tug'ilishi;

Etyudlar;

Juftlik va ko'pchilik bilan ijro etiladigan etyudlar;

Etyudlarda kuyning va qo'shiqning tug'ilishi mashqlari.

Ikkinchi kursda talabalar etyud ishlash jarayonini davom ettirgan holda dramatik materiallardan tanlangan sahnalarni tahlil qilishlari, muallifning g'oyasini, asarning mavzusi, oliy maqsadni, rolning yetakchi xatti-harakatlarini, vazifalarini aniqlaydilar. Muallif yozgan so'zlaridan kelib chiqib, berilgan shart-sharoit, muallifning muddaosi, asar qahramonlarning mantig'i, xatti-harakatli fikrlash uslubi, qiziqish va intilishlarini tahlil qilish kerak.

Yakka etyuddan ommaviy etyudga o'tish jarayoni

Juftlik etyud ishlash jarayoni

Uchinchi o'quv yilida talabalar musiqali teatrning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtira boshlaydi. Dramatik teatrda aktyorni rol ustida ishlash, dramatik asarga bog'liq bo'lganidek, musiqali teatrda pesa klaviri va musiqali partiyalar, harakat temporitmiga bog'liqdir.

Mana shu o'rinda mavzuda ko'rsatilganidek obraz yaratish jarayoni xususida to'xtalishga zarurat seziladi.

Musiqali dramaturgiyada musika, kuy asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Musiqada asar voqealari xarakterlar, to'qnashuvlar, xatti-

harakatlar aks etgan bo'lishi kerak. Musiqali teatr artisti xonanda ijrochi bo'lmog'i, kuylash orqali o'zi o'ynayotgan rolning hatti-harakatini maromiga yetkazib, haqqoniy obraz yaratishga erishmog'i kerak. Yuqoridagi ko'rsatilgan talablarni bajarilgandagina mukammal obraz yaratishga erishish mumkin. Mazkur ishda tahlildan o'tkazadigan «Nodirabegim» va «Boburshoh» diplom spektakllarida obrazlar soni juda ko'p. Lekin mukammal xarakterga ega bo'lgan uchta obraz mavjud. Bular Nodirabegim, Haqqul va Amir Nasrullolardir. Talaba-aktyorlarning talqinida ham bu obrazlar yorqin ifodasini topgan. «Boburshoh» diplom spektaklida esa talabalar ijrosidan kelib chiqqan holda, yagona Boburshoh obrazini mukammal obraz deyish mumkin.

Musiqali teatr aktyorligi elementlarini talabalar uchinchi kurs yakunigacha o'rganadilar. To'rtinchi kursda esa diplom spektakllari ustida ishlaydilar. Shuning uchun ham yuqarida 1-2-3 kurslarda mahorat darslarini yaxshilash maqsadida o'quv dasturiga ularni yanada mukammallashtirish maqsadida takliflar kiritishga harakat qilindi.

Qolaversa, vokal va an'anaviy ijrochilik fanidan institutda konservatoriyadan taklif qilingan mutaxassislar saboq bermoqdalar. Nazarimda, qo'shiqchilikning ijro texnikasida hech qanday kamchilik bo'lmasligi mumkin. Ammo musiqali teatr aktyori uchun aktyorlik mahorati, sahna nutqi, sahna harakatidan xabardor bo'lgan aktyor mutaxassisligiga ega o'qituvchilar saboq bersalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Savol va topshiriqlar

1. Aktyorlik ilk bosqichlarining asosiy elementlarini sanab bering?
2. Badiiylik nechaga bo'linadi?

1.3 «Nodirabegim» diplom spektaklida ijro qilingan rollar talqini va tahlili

Institut tashkil qilinganidan buyon ko'plab bitiruv diplom spektakllari sahnalashtirildi va institutning o'quv teatri sahnasida namoyish etildi.

Jumladan, musiqali teatr aktyorligi kurslari ham o'quv teatri sahnasiga bir qator spektakllarni olib chiqdi. Ushbu risolada o'quv teatrida sahnalashtirilgan «Nodirabegim», «Oydinda yurgan odamlar» va

«Boburshoh» spektakllarining yaratilish jarayoni, obrazlar talqini, aktyorlar ijrosi, qolaversa spektaklning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilamiz.

Avvalom bor, «Nodirabegim» spektakli xususida to'xtalsak. Risola muallifi ham ikkita bitiruv diplom spektaklida rol ijro etgan. Shulardan biri «Nodirabegim» spektaklidir. Bu asar oldin Hamza nomidagi (hozirgi milliy) akademik drama teatrida, keyinchalik esa Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida rejissyor O'zbekiston respublikasi xalq artisti B.Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan va teatr mutaxassislari, keng jamoatchilik bu spektakllarga yuqori baho berishgan. O'quv teatrida kurs rahbari va aktyorlik mahorati o'qituvchi M.Otajonov tomonidan sahnalashtirilgan diplom spektakli esa 2002 yil «Talaba-yoshlar ijodiyoti ko'rik festivali» da «Yilning eng yaxshi rejissyorlik ishi» nominatsiyasi bilan taqdirlangan. «Yilning eng yaxshi ayol roli ijrochisi» nominatsiyasi esa spektakl bosh qahramoni «Nodirabegim» obrazini talqin qilgan talaba K. Darmanovaga nasib qilgan edi. Bunday e'tirof spektaklning yuqori badiiy darajasidan dalolat beradi.

Taniqli shoir, ssenariynavis va dramaturg T.To'laning «Quvva iy qah-qaha» dramatik dostoni she'riy shaklda yozilgan, tarixiy asar.

XIX asr Qo'qon xoni Madalixon otasi vafotidan keyin yosh bo'lishiga qaramasdan taxtga o'tiradi. Bu davrda xonlikda turli xil nizolar paydo bo'la boshlaydi. Xonning onasi shoira Nodirabegim o'g'lining siyosatiga aralashadi, uni to'g'ri yo'lga boshlashga harakat qiladi. Turli beklar o'zboshimchalik bilan ish ko'radilar. Fursatdan foydalangan Buxoro Amiri Nasrullo Qo'qonni qamal qiladi. Uch oylik qamaldan so'ng dushmanga qarshi chora qidira boshlaydilar. Nodirabegim o'g'illari Sulton Mahmud, Farruh va Qora Mirzalardan yordam so'raydi. Madalixon xiyonatkor mingboshi Haqqulning fitnasiga ishonib o'z taqdirini saqlab qolish uchun o'z inilarini qatlga buyuradi. Oqibatda Haqqulning xiyonati bilan Amir qal'aga yorib kiradi. Madalixonga hatto o'z onasi Nodirabegimni ham xiyonatkor deb aytishadi. Haqqul o'zi qo'ygan tuzoqqa o'zi ilinib fosh bo'ladi. Amir Qo'qonning kulini ko'kka sovuradi. Madalixon qatl etiladi.

Asar ana shunday voqealar tizimiga qurilgan. Endi asarning rejissyorlik talqini va spektaklning tahliliga e'tibor beramiz.

Asarning kirish voqeasi:

Buxoro Amiri tomonidan Qo'qonning uch oylik qamalda bo'lishi va xonlikning ichki nizolari. Haqqulning maslahati bilan barcha saroy ayonlarini qatl etilishi.

Asosiy voqea:

Nodirabegimning Haqqul xiyonatidan qisman bo'lsa-da, xabar topishi, Farruh va Qora Mirzadan Madalixonga yordam so'rab, xalqni dushman xurujidan saqlanishiga ko'mak berishlarini so'rashi. Madalixonning bu voqeadan xabar topib, o'z onasini xiyonatkorlikda ayblashi.

Markaziy voqeasi:

Haqqul kanizak bilan til biriktirib, Amirga qal'a darvozasini ochib berishi. Nodirabegimning joniga qasd qilishga harakati. Madalixonni o'ldirish rejasini tuzishi. Farruh va Qora Mirzani xufiyona qatl etishga buyurishi.

Final:

Chorasiz qolgan Nodirabegim Amir Nasrullo xuzuriga borishi. Haqqulning tavbasiga tayanishi. Har qancha urinmasin Amirni to'xtata olmasligi.

Bosh g'oya:

Har qanday vaziyatda ham Nodirabegim xalq dardi bilan yashashi. Uni haqorat qilishlariga yo'l qo'ymaydi. Qonga qurilgan saltanat bir kuni kelib qulashi muqarrardir deydi. Madalixonning bunday chorasiz qolishiga sabab, o'z onasining maslahatini olmaganligi. Asardagi yana bir asosiy obraz bu Haqquldir. Garchi asardagi voqealar rivoji davomida katta ommaviy sahnalar bo'lmasa-da, musiqali spektaklning g'oyasi xor ijrosida nomoyon bo'ladi.

To'g'ri, spektaklning nomi «Nodirabegim», Nodirabegim tarixiy shaxs, yirik shoira, noyob iste'dod sohibasi, bundan tashqari u malika, mehribon ona, spektaklda Nodirabegimning bu xarakter qirralari mukammal tarzda yoritiladi. Lekin asosiy urg'u uning jamoat arbobi sifatidagi faoliyatiga qaratiladi. Shoira Nodirabegim qiyin va nochor ahvolda qolgan xalq dardi bilan yashaydi.

Asosiy konflikt Nodirabegim va uning o'g'li Qo'qon xoni Madalixon o'rtasida boradi. Bundan tashqari berilgan shart-sharoit va yetakchi xatti-

harakat o'rtasida konflikt mavjud. Ya'ni – bu qamalda qolgan qal'ani himoya qilish uchun intilish va bunga qarama-qarshi turgan qal'ani ishg'ol qilishga harakat. Shu ikkita kuchning to'qnashuvida asarning barcha ko'rinishlaridagi konfliktlar voqea rivojiga katta hissa qo'shadi.

Yuqorida keltirilgan talablar ushbu qo'yilgan diplom spektaklida o'z ifodasini topgan.

Men ushbu spektaklda Haqqul rolini ijro etdim.

Spektaklda ishlatilgan barcha ifoda vositalari, Ya'ni sahna bezaklari, liboslar, xor ijrosi, musiqa, ariyalar asar mukammalligi uchun xizmat qiladi. Rol ijrosi davomida menga spektakldagi mavjud kamchiliklar ko'rinmagan bo'lishi mumkin, lekin shunga qaramasdan ish jarayonida til bilan bog'liq muammolar bo'lganligi sezilib turdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, asar she'riy, dramatik dostonidir, barcha dialog va monologlar nazmiy uslubda. Shuning uchun bo'lsa kerak, asar matnini o'zlashtirishda ba'zi qiyinchiliklar sezildi.

Asarda ariyalar ijrosi mukammal, orkestr bilan ishlashda qiyinchiliklar tug'ilmadi. Asarning bunday badiiy yaxlitlikka erishganining asosiy omili, o'quv jarayonida qator parchalarning ishlanganligida.

O'quv dasturiga ko'ra uchinchi kursda mazkur musiqali dramadan ikkita sahna ustaxonada sahnalashtirildi. Bu sahnalarda men Amir rolini ijro etgan edim. Asarni to'laligicha qo'lga olganimizda mening chekinga Haqqul obrazini yaratish vazifasi tushdi. Quyida ushbu parchadan kichik bir lavha tahlili keltiriladi, sababi ushbu sahnada ishtirok etuvchi personajlar asarning asosiy o'zagini tashkil etuvchilardir. Ya'ni Amir Nasrulloning huzuriga Nodirabegimning kelishi va u yerda Haqqulni uchratishi.

Ushbu ko'rinish spektaklning final sahnasi hisoblanadi.

Nodira: Haqqul?!

Haqqul:

Yo rabbiy, Xudoga shukur ming qatla shukur.

Momoi mulki Turon hokimoyim,

Shukurkim sizni yetkazdi xudoyim.

Meni hozir osurlar yo so'yurlar munosibman.
Ular bundan to'yurlar va lekin
O'ldirurlar, haqqi yo'qlar,
Bugun holimga maymun zoti yig'lar.
Meni o'ldirsa haqli erdi Qo'qon.
Malikam, pand yedim, dahshatli bir pand.
Meni siz o'ldiring, ulmas malika,
U manfur, u razil, badmast, malikam.
Pichoq bergan qo'limga shu battol.
Yo'limdan ol degan sizni shu dajjol.
Uring, siz o'ldiring armonda ketmay.
Amir jallodining shamshiri yetmay.
Momoi mulki turon hokimoyim.
Zabunlik ko'rmagay yurtning iloyim.
Momoi mulki turon hokimoyim.
Zabunlik ko'rmagay yurtning iloyim.

Amir:

Nodirai davron, Momoi Farg'ona!
Ajabo, qanday tashrif buyurdilar?
Shuncha soqchilar,
Alp navkarlar bilan o'rab olingan,
Amir olmuslimin qarorgohiga.

Nodira:

Barcha taajjubda bir Amirmas
Demak, hamma narsa Amir, be istisno.
Amir istisnomas o'zga Amirdan.

Amir:

Biz suhbatni shunda qururmiz!
Sizga ruhsat.
Sizlarga ham.

Nodira:

Amir, Sohibqiron.
Diqqat bilan tinglang.
Mening, sizcha qilib aytganimda,
Saltanatga nojins bir zaifaning
Bunday jur'atiga hayron bo'lmassiz.
Halqi, Vatanini bilgan,
Har inson boshida
Falokat buluti turib!
Meni ahvolimni anglasa lozim.
Amir idrokiga, halolligiga tayandim
Albatta hammadan avval
Yashirinib chiqdim maxfiy o'rdadan.
Na o'rda biladi, na shahar buni.
Hatto bilishmaydi, xos navkarlarim.

Amir:

Buxoro Amiri. Qo'qond malikasi qoq sahar be qirol ovga chiqibdi deng?
Tassavvurimdayam xuddi shunday edingiz.

Nodira:

Xudo hayratingizni bersin olampanoh.
Hali O'ratepa, Xo'jand, Shahrisabzning sovigani yo'qku kul tepalari
Toshkent, Farg'onaning, Xo'jand, Turkistonning bir yillik xirojini
bag'ishladikku.
Xutfaga kirdiku ismingiz axir.
Tag'in nima kerak bo'ldi Amirga.

Amir:

Madalining boshi.
Bergan va'damizni,
Qilgan shartimizni buzdi,
Buxoroga yetmasimizdanoq.

Bu yo'ldan qaytish yo'q Nodirabegim.
Yomonlar adabin berish ham zotan.
Parvardigorimdan menga buyurilgan.
Ertaga kiraman tong otardayoq.
Tartib o'rnataman avvalo.

Nodira:

Qalam bilan balki? Qilich bilanmas.
Hayri ehson emas.
Insof so'rab keldi Qo'qon shoirasi sizdan.
Va faqat insof, shafqat.
Nahotki ittifoq birikkan qo'llar
Qilichlar yumushin qilolmaslar?
Bosqinni bas qiling Amir.
Uyatga qo'ymang musulmon yurtini dunyo oldida.

Amir:

Qilich bas keladi faqat Madaliga,
Uning tiliga ham, kallasiga ham,
Qora tuproq bilan teng qilaman uni
Madali qadami tekkan har bir puchmoqni qirib bitiraman, yetti
pushtini.

Nodira:

Insof va shafqatni el uchun so'rdim.
Uning qoni uchun Amir ketingiz bundan.
Razil kishilarda aql bo'lmaydi.
Imon ham bo'lmaydi, bu sizga ayon.
Ammo siz aqlli, dono odamsiz.
«Baxudsaroni jahon obro'sh maraka nest,
Ba ittifoq kunat kori zulfikor angusht»
Qachon asqotibdi zo'rlik zafari.
Qonli qilichlarning qonli safari, Amir
Qo'qon tiz cho'kmaydi oson.

Amir:

Cho'kadi Movarounnahr, Nodirabegim ikki hokimlikka torlik qiladi.
Madali Nasrullo bosh chanog'ida.
Sharob sipqormoqqa qasam ichadi.
Men ham qasamini qabul qildim Ya'ni:
Farg'onada shunday bo'ron tursinki,
Qo'qondan qolmagay nom nishona
Ana undan keyin Madalixonga
Na chalob na sharob kerak bo'ladi.

Nodira:

Jahl-jaholatga salovat, Amir.
Mamlakatlarimiz busiz ham notinch.
Ingliz Avg'onga tahdid qilmoqda.
Orenburg yo'qotdi xalovatini.
Xiva biyobonda adashgan qo'zi.
Buxoro bu tahlid,
Qo'qon bu tahlid
Shu tahlit, ittifoq bo'lmagunimizcha
Yeb bitirishadi bitta-bittalab
Alalxusus Amir dorul saltanati
Qo'qon viloyati talab qiladi.
Agar, agar Madalida bo'lsa o'chingiz, mayli.
Avom haqqi, muzofat haqqi,
Ushlab berayin olib ketingiz.

Amir:

Yo'q Nodirabegim.
Men Madalini taxtu-ravonida, harom to'shagida,
Xoji Darg'aga yo'l qo'yib bergan o'sha O'rdasida
Tutishim kerak.
Ittifoq deganlari bekorchi bir gap.
Har kim o'z tomini kuraydi begim,
Har kim o'z yerini haydaydi.

Ya'ni bordiyu, yerini yaxshi boqmasa,
Chigirtka bostirib yuborsa uni
Ya'ni sizga o'xshab Nodirabegim
Ana unda qo'shnilik ham tamom bo'ladi.
Mana bizga o'xshab bosh ko'taradi.
Ya'ni o'z yeriga o'tib ketmasin deb,
Bostirib kiradi o'sha betofiq,
Nobakor yeriga qo'shnisi shaksiz
Yemirib tashlaydi tuqqan tuprog'ida
Ana shu yuqumli kasalliklarni
Siz, avomni qayga boshlamoqdasiz?
Madrasalaringiz huquq-xonasi,
Ilmu-falakkiyot, ilmu-hikmat allaqanday dahriy.
Mirzo Ulug'bekning ilmu-nujumi ila to'lib toshganmish.
Bu qanday ruju, bu qanday ta'lim.
Kecha malika sizga xaj va'da qildim.
Xajni rad etdilar, astag'furullo!
So'ngra va'da qildim hokimalikni
Nodira:
Ikki farzandimni o'limigami?

Amir:
Qabul qilmadilar buni ham oyim.
Maliku shuaro va'da qildim so'ngra,
Buxoroi ma'ruf saltanatiga.
Alisher Bayqaro saltanatining toji bo'lganiday.
Toj bo'ling siz ham
Amir Nasrulloning saltanatiga.
To'plangan vazirlaru, shuarolarini.
Tashrif buyursinlar yetti iqlimdan
Kuylang, Buxoroning mahobatini
Uning mahtoviga bag'ishlang o'zni
Buyog'i Ajamga? Buyog'i Balxga.
Buyog'i Misrga ketsin nomingiz.

Bu dunyoda mening yolg'iz umidim
G'azal malikasin shod ko'rsam edim.
Nechun, nechun indamaysiz, Nodirabegam?
Kecha To'marisni esga soldingiz,
To'g'ri, To'marisga o'xshashligingiz bor.
Ammo To'marisga o'xshamang
Men ham Qay Xisrov bo'lmayin.

Nodira:

O, Arosatda qoldirdi meni xiyonat.

Amir:

Xiyonat? Malika, bu xiyonatmas, bu idrok o'yin.

Nodira:

Xiyonat, inson boshiga, mamlakat boshiga bitgan kasofat!

Amir:

Yoqib tugatamiz, demak, Qo'qonni (Amir chiqib ketadi)

Nodira:

Umidvorman, umidimiz tongi kelib qoladi...
Balolarning, qazolarning ko'chasi yo'qoladi.
Umidvormen yoqasi chok nomurodlar baxtiga murod.
O'zi bechoralar kulbasiga keladi.
Mening g'amli kunlarimni yoritur
Shamchirog'im nurga yetar
Karvonlar qorong'u tarqaladi.
Axir, bu yer bu tuproq ardog'imdir.
Kuyim, dardim, muqaddas tuprog'imdir.
Bu tuproqlar ko'zim qoni ila
Ming lolazor o'lsa
Bobomdur ul!
Momomdur ul!

Otamdur ul!
Onamdur ul!

(Ashula)

«Nodira ahvolidin ogoh bo'ling,
Ey musohiblarki qolmush yorsiz.⁵

Ushbu lavhada asardagi asosiy qahramonlarning xarakter qirralari ochilgan, ularning barchasi bir sahnaga jamlanib spektaklning kulminatsion nuqtasini tashkil qiladi.

Masalan, Nodirabegim davlat va jamoat arbobi sifatida to'la namoyon bo'ladi. Chunki u har qanday vaziyatda ham xalq tomonida turadi. Uni himoya qilishga harakat qiladi. Nochor qolgan xalq uchun nolai-fig'on chekadi.

Shuning uchun ham Amir Nasrullo uning takliflarini rad etadi. Spektaklda bu holatlar Nodirabegim tomonidan ijro etiladigan «Ehtiyoj», «Tushimda ko'rsam edi» ariyalarida to'la ochib beriladi.

Farhod Olimov musiqasi bilan Nodirabegim roli ijrochisi K.Darmonova tomonidan har tomonlama mukammal, o'ziga xos tarzda maromiga yetkazib ijro etilgan «Ehtiyoj» va «Tushimda ko'rsam edi» ariyalarining nota va matnlari tavvfsiya etiladi.

⁵ Asar matni Muqimiy nomidagi musiqiy teatrning arxivida saqlanadi. Turob To'la. «Nodirabegim» (pyesa)

ЕНТИҲОҶ

Нодира арияси

Moderato

mf

Қил-ма-ғил зин - хор из - хор

Ким а- зиз эл - ни қи- лур хор эҳ-ти-ёж

Ган - жи хус - нинг - ни за - ко - тин бер мен-га

Сенға- ний - сан мен-да бис - ёр эҳ-ти-ёж

кўз-ла- рим ай - лар ҳа- ми - ша ор - зу

Ким э- рур- кўз - гу - я дий - дор эҳ-ти-ёж

Мус-та- ман эт - ти ме- ни мух - тож - лик Қил-ди хо - жат

ман-динэ ёр

Ё - ри вас - ли -

ни ти- лар - мен Но - ди- ра о

Ё - рай Ай-ла- ди кўнг -

mf *p*

лим-ни ая - гор эҳ - ти- ёж ай - ла- ди кўнг -

p

лим-ни ая - гор эҳ - ти-ёж

mf

TUSHIMDA KO'RSAM EDI

Нодира арияси

Шошилмай

жуда ҳам дардли

The musical score is written in 4/4 time. It consists of three systems, each with four staves. The first two staves in each system are for the vocal parts (soprano and alto), and the last two are for the piano accompaniment (treble and bass). The vocal parts are mostly whole notes or rests, while the piano accompaniment features sustained chords and a rhythmic bass line. The score is in 4/4 time.

A musical score for the song 'The Rose Tree'. The score is written for four staves. The first staff is a treble clef with a key signature of one flat (B-flat). The second and third staves are also treble clefs, with a key signature of one flat (B-flat). The fourth staff is a bass clef with a key signature of one flat (B-flat). The music is in 4/4 time. The first staff contains a single note (B-flat) in each of the five measures. The second and third staves contain a melody in each measure, starting with a half note (B-flat) and followed by a quarter note (A-flat). The fourth staff contains a bass line in each measure, starting with a half note (B-flat) and followed by a quarter note (A-flat). The melody and bass line are identical in each measure.

Ни-го - ри гул ба-да - нин-ни

ту- шум - да кўр - сам э-ди

The first system consists of a vocal line and a piano accompaniment. The vocal line is in a single staff with a treble clef, showing a melody with eighth and sixteenth notes. The piano accompaniment is in two staves (treble and bass clefs), featuring a steady eighth-note bass line and chords in the right hand.

1. 2.

Ла- би ша-кар

The second system includes a first and second ending for the vocal line. The first ending leads back to the beginning of the system, while the second ending continues the melody. The piano accompaniment continues with the same rhythmic pattern.

ши- ка - ним- ни ту- шум - да кўр - сам э-ди

The third system concludes the piece. The vocal line ends with a final note, and the piano accompaniment features a decorative flourish in the right hand marked with a '0' and a '2'.

Кўз оч - ма- йин ға- ми -

The first system of the musical score. The vocal line (treble clef) begins with a whole rest, followed by a half note G4, a quarter note A4, a half note B4, a quarter note C5, a half note D5, a quarter note E5, and a half note F5. The piano accompaniment (grand staff) consists of a left hand with a steady eighth-note bass line and a right hand with chords and moving lines.

-да Рў-зи- ғо - рим ўт- ғу - чи-дир

The second system of the musical score. The vocal line (treble clef) starts with a half note G4, followed by a quarter rest, then a half note A4, a quarter note B4, a half note C5, a quarter note D5, a half note E5, and a quarter note F5. The piano accompaniment continues with similar patterns to the first system.

Ки-ё - ри Сийн - та-ним - ни

The third system of the musical score. The vocal line (treble clef) begins with a half note G4, followed by a quarter note A4, a half note B4, a quarter note C5, a half note D5, a quarter note E5, and a half note F5. The piano accompaniment features a more complex texture with arpeggiated chords in the right hand and a steady bass line in the left hand.

ту- шим - да кўр - сам э - ди

The first system of the musical score consists of a vocal line and piano accompaniment. The vocal line is written in a single treble clef staff. It begins with a quarter note 'ту-', followed by a dotted quarter note 'шим - да', then a half note 'кўр - сам', and ends with a quarter note 'э - ди' followed by a quarter rest. The piano accompaniment is written in grand staff (treble and bass clefs). The right hand starts with a half note chord, followed by a quarter rest, then a series of eighth notes. The left hand starts with a half note chord, followed by a quarter rest, then a series of eighth notes.

Ю-зи гу- лу ко - ши шам- шод

The second system of the musical score continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line begins with a quarter rest, followed by a quarter note 'Ю-зи', then a dotted quarter note 'гу- лу', then a half note 'ко - ши', and ends with a quarter note 'шам- шод' followed by a quarter rest. The piano accompaniment continues with the same pattern of chords and eighth notes.

Кўз-ла- ри нар-гис

The third system of the musical score continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line begins with a quarter rest, followed by a quarter note 'Кўз-ла- ри', then a dotted quarter note 'нар-гис', and ends with a quarter rest. The piano accompaniment continues with the same pattern of chords and eighth notes.

Ба-хо - ри ё - су-ма - ним- ни

ту-шум - да кўр- сам э-ди

Ба-хо - ри ё - су-ма - ним- ни

Ла- бин - ға кел- ди а- нинг

вас-ли- ни из-лаб

Ба- ло ў- ти фи- ка - ним - ни ту-шум - да

кўр- сам э-ди ха-ми-ша бул-бу- ли таъ-им

The first system of the musical score consists of three staves. The top staff is a vocal line in treble clef with a key signature of one flat (B-flat). It contains four measures of music with lyrics underneath. The second staff is an empty treble clef staff. The third staff is a piano accompaniment in grand staff (treble and bass clefs) with a key signature of one flat. It contains four measures of music, including a long sustained chord in the second measure.

Фи-го - ну зор э-тар

The second system of the musical score consists of three staves. The top staff is a vocal line in treble clef with a key signature of one flat. It contains three measures of music with lyrics underneath. The second staff is an empty treble clef staff. The third staff is a piano accompaniment in grand staff with a key signature of one flat. It contains three measures of music.

Ки о - ра-зи ча- ма - ним- ни

The third system of the musical score consists of three staves. The top staff is a vocal line in treble clef with a key signature of one flat. It contains three measures of music with lyrics underneath. The second staff is an empty treble clef staff. The third staff is a piano accompaniment in grand staff with a key signature of one flat. It contains three measures of music, including a repeat sign in the first measure.

1. 2.

ту- шум - да кўр - сам э - ди

кўр-сам э - ди

EHTIYOJ

F. Olimov musiqasi
Nodirabegim ariyasi

Qilmag'il zinxor izxor ehtiyoj,
Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj.
Ganji xusningni zakotin ber menga,
Sen g'anisan menda bisyor ehtiyoj.
Ko'zlarim aylar yuzingni orzu,
Kim erur ko'zgu-ya diydor ehtiyoj.
Mustaman etdi mani muxtojlik
Qildi xojat mandin ey yor ehtiyoj.
Yori vaslini tilar men Nodira
Ayladi ko'nghimni afgor ehtiyoj.

TUSHIMDA KO'RSAM EDI

F. Olimov musiqasi
Nodirabegim ariyasi

Nigori gulbadanimni tushimda ko'rsam edi,
Labi shakar shikanimni tushumda ko'rsam edi,
Ko'z ochmayin g'amida, ro'zgorim o'tg'uvchidi,
Ki yorim siyn tanimni tushimda ko'rsam edi.
Yuzi gulu, qoshi shamshod, ko'zlari nargiz,
Baxori yoz sumanimni tushumda ko'rsam edi.
Labig'a keldi oning vaslini tilab jonim,
Balo o'ti fikanimni tushimda ko'rsam edi.
Xamisha bulbuli tabim fig'onu zor etar
Ki orazi chamanimni tushimda ko'rsam edi.

Fikrimizcha, spektakl talabalar uchun katta imkoniyatlar maktabi bo'la oldi.

Badiiy jihatdan yuksak bo'lishiga qaramasdan, diplom spektakli ba'zi kamchiliklardan ham xoli emas edi, bu, nazarimizda talabalarda hali tajriba va ko'nikmalari yetarli darajada emasligi bilan bog'liq.

Aytaylik aktyor talqin etayotgan qahramonining holatiga to'laqonli kirisha olmaganidan, nutq va holat uyg'unligi yo'qoladi. Ijroda esa siqqlik paydo bo'ladi, siqqlikdan esa kechinma unutilib, aktyorning ijrosi faqat ko'rsatib berishdan iborat bo'lib qoladi. Buning asosiy sababi 20 yoshli aktyor va aktrisalalar 50-60 yoshli personaj obrazini talqin etishidadir.

Bundan tashqari musiqali teatrda shartlilik degan tushuncha bor. Ya'ni rol ijro etayotgan aktyor ariya ijrosi paytida bevosita orkestr va dirijyorga bog'liq bo'lib qoladi. Shuning uchun ham aktyor ariya paytida sahna avanssenasiga kelishi va ovozi tomoshabinga yetkazishi kerak. Bu holatda ham kechinma san'atiga putur yetadi. Shu jihatdan olib qaraganda «Nodirabegim» spektaklida ma'lum bir kamchiliklar ro'y bergani bu tabiiy. Ayniqsa, ariya ijro etayotgan talabalarni umumiy dramatik holatdan ajralib qolayotgani aniq ko'rinib turadi.

Spektaklda kuyidagi talaba aktyorlar rollar ijro etganlar.

Nodira: Komila Darmonova

Uvaysiy: Dilafro'z Ahmedova

Amir Nasrullo: Adham Qirg'izboyev

Haqqul: Rashid Usnatov

Madali: Uchqun Muhammadiyev (marhum)

Kanizak: Ra'no Egamberdiyeva

Qora Mirza: Sanjar Xolmirzayev

Farruh: Otabek Tursunov

Xor va ommaviy sahnalarda 3 kurs musiqali teatr aktyorligi bo'limi talabalari ishtirok etgan.

SPEKTAKL ISHTIROKCHILARI:



II BOB SAHNAVIY XATTI – HARAKAT. AKTYOR SAN'ATINING QUROLI

2.1 Aktyor ijodi va xatti - harakat tahlili

Musiqali drama haqida fikr yuritganda, avvalo janr va uning komponentlari, bosib o'tgan tarixiy yo'l, shu jarayonda tarkib topgan o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutish kerak. Bu janrga boshqa janr talabi bilan yondoshish ko'pincha yanglish va subektiv xulosaga olib keladi. Musiqali drama janri ham opera, operetta, drama kabi mustaqil janr bo'lib, uning o'z tabiyati, shartlari va vazifalari bor.

Musiqali drama - ko'p tarmoqli, murakkab san'at. Binobarin musiqali drama san'atning uch muayyn mustaqil jabhasi. Ya'ni dramaturgiya, musiqa va aktyorlar hatti-harakati kabi bir maqsad yo'lida bir-birini o'yg'unlashuvidan yaxlit sahna asari hosil bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, musiqa, drama, pesa, shu asosda yozilgan musiqa va sahnaviy talqin kabi uch asosiy komponent birlashadi. Garchi, pesadagi unga atab yozilgan musiqani, yoki biror komponentini tushirib qoldirilsa, musiqali drama deb bo'lmaydi. Sahnada pesa, musiqa, baletmester tomonidan ijod qilingan raqslar, ijrochilar va orkestr tomonidan o'zlashtirilib, sahnaviy xatti-harakatga aylantirilgandagina, musiqali drama hosil bo'ladi. Demak sahnaviy xatti-harakat tufayligina ikki yirik manba pesa bilan musiqa bir-birini topadi, birikadi va ulardagi imkoniyatlar ro'yobga chiqadi. Shunda dramaturg bilan kompozitor ko'zlagan g'oyaviy va badiiy maqsad amalga oshadi.

Operettada musiqa (cholg'u va vokal) yetakchi komponent bo'lib, simfonik musiqa, murakkab ansambllar, polifoniya hal qiluvchi rol o'ynaydi. Musiqali drama janrida pesa, musiqa va aktyorlar ijrosi barobar ahamiyatga egadir. Ularning teng huquqligi, birligidan hosil bo'ladigan, drama, tragediya va komediya yo'nalishidagi turlarni kashf etgan, va milliy adabiy-badiiy meros negizida rivojlanib kelayotgan, o'z tarixiy yo'li, uslubi, vazifalariga ega bo'lgan san'at - bu musiqali drama janridir.

Sahnaviy talqin tufayli yuzaga keladigan badiiy so'z bilan musiqaning teng huquqligi va birligi, deganda, nimani tushunamiz? Bu, so'z bilan musiqa shunchaki yonma-yon kelaveradi degan gap emas. Ikki yirik manba va ayni chog'da tarkibiy qism - komponent bo'lmish (so'z,

dialog, monolog) bilan musiqa (vokal, xor, orkestr musiqasi, rechitativ) ma'lum qonuniyat asosida yuzaga keladi. Bu qonuniyatning oti uyg'unlikdir. Musiqali dramada uyg'unlik deb nimani tushunamiz? Ma'lumki, musiqali dramada voqea, obrazlar, konflikt monolog va diologlarda belgilanadi.

Musiqaviy qismlar dramatism va hissiyotlar kuchayganda, so'z bilan ifoda qilish mushkul bo'lgan paytlarda ishga tushadi. Natijada kuylar hamda turli shakldagi ashulalar so'z bilan ifodalangan dramatik (yoki komedik) holatlarga uzukka ko'z qo'yganday bo'lib tushishi bilan birga o'sha holatlarni yanada kuchaytiradi va syujet rivojida muhim nuqtalarga olib chiqadi. Ma'lum holatlar ham so'zda, ham musiqada aynan takrorlanmasdan balki ularda davom ettirilishi kuchaytirilishi va pirovardida yakunalanishi kerak. Badiiy so'z va musiqa vositalari bilan tasvirlangan holatlar, kechinmalar biri ikkinchisidan kelib chiqishi, bir-birini to'ldirishi lozim. Shunday qilib, musiqali dramada - bu keng ma'noda komponentlar o'rtasidagi uzviy, organik, mantiqiy bog'lanish, tor ma'noda - aktyorning obraz yaratish jarayonida diolog va monolog ijrosidagi holatlarni kuylagan paytida ham izchil davom ettirishidir.

Asar ijodiy rejasi tug'ilishidan to premeragacha uyg'unlik muammosi dramaturg, kompozitor, rejissyor va ijrochilarning diqqat markazida turishi kerak. Bu muammo spektakldagina to'la-to'kis yechiladi, amalga oshiriladi. Bu ishda aktyorlarning xizmati nihoyatda katta bo'ladi. Zero, uyg'unlikka qay darajada erishilganligi avvalo aktyor ijrochiligida ko'riladi. Shu sababli musiqali drama aktyori yangi obraz yaratishga kirishar ekan, o'z qahramonining yetakchi xatti-harakati va bosh maqsadini belgilab, shu asosida roldagi so'z va musiqaviy qismlarning vazifalari o'rni va ahamiyatini aniqlab oladi. Aktyor, eng avvalo so'zdan kuyga yoki kuydan so'zga o'tishda uzviylikni yo'qotmasligi lozim. So'z yoki vokal kuchsiz ijro etilsa, so'zdan kuyga yoki kuydan so'zga o'tishda organik holat buzilsa xatti-harakat izchilligi yo'qoladi, sun'iylik va yuzakilik paydo bo'ladi, natijada uyg'unlikka futr (ziyon) yetadi.

Xalqimiz musiqali dramani o'zining eng sevgan janri sifatida qabul qilishining asosiy sababi, bu janrda drama va musiqaning, raqs va she'riyatning mukammal va betakror o'yg'unligidadir. Asarning

kompozitsion qurilishi va yuksak badiiyotidan tashqari, spektakllardagi musiqaning yetakchi o'rne, ariya, xor, maxsus partituralar, duet, trio, kvartet ijrolari, yakka va umumiy raqslar, balet, sahna jangi, she'riyat, mumtoz g'azallar, dostonchilik kabi ko'plab boshqa san'at turlariga uzviy bog'liq ekanligi, sahna asarlarini muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Sintez san'ati, o'z zimmasiga katta mas'uliyatni olgan. Asarlar uchun, ularni ijro etuvchi aktyorlar uchun maxsus partituralar, musiqalar, kuylar bastalanishi, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijrolaridagi obrazlar fe'l atvoridan chetlashmagan holda, spektaklni yanada boyitishi, rang-barang bo'yoqlar bilan jilva ato etishi, katta mehnat va izlanish talab etadi. Nafis raqs san'ati bo'lsa, obrazlarni, kechinmalarni nozik harakatlar ila hamohang etishi, har qanday tomoshabinni bee'tibor qoldirmaydi. Hozirgi texnika rivojlangan davrda, texnikalarning turli ko'rinishlari ijodkorlarimizning samarali mehnat qilishlari uchun turli-tuman yengillik va qulayliklar yaratayapti. Bugungi kunda, aktyorlar ijrosidagi erkinlik, tomoshabinlar uchun qulayliklar, rejissyor va rassomlar uchun turli fantaziyalarini ro'yobga chiqarishlariga imkoniyatlar shu darajada yorqin va ko'pki, 60-70 yil ilgarigi sahna imkoniyatlari bilan solishtiradigan bo'lsak, teatrdagi sintez san'atining o'rne naqadar mustahkamlanganini guvohi bo'lamiz.

Sintez san'at turi barcha san'at sohasiga asta-sekinlik bilan singib, musiqiy teatr sahnalariga ham avvalo musiqa, ariya, yakka va umumiy raqslarni birikishi orqali kirib kelgan. Bunda milliy dostonchilik orqali rivojlangan, dramatik asarlar kabi sahnalashtirilayotgan musiqiy asarlarda, kuy-qo'shiq, milliy va mumtoz ashulalar, hamda xalq raqslaridan bevosita foydalanilgan. Ko'p o'tmay, kuy-qo'shiqlarning turli ko'rinishlari, musiqiy partitura, milliy musiqa merosimiz, ariya, xor, duet, trio, kvartet va she'riyat hamohangligida maxsus asarlar yaratilib, sahnaviy asarlar yanada boyitildi. Yaratilayotgan spektakllarda aktyorning ovoz diapazonlariga, musiqiy imkoniyatlariga moslangan ariya, xor, duet, musiqiy partituralar yaralishi, bu ijrolarning jonliligi, haqqoniyligi xalqimiz qalbidan joy oldi.

Ayniqsa shu janrda ijod qilgan atoqli ijodkorlarimiz, ular uchun kuy bastalagan bastakorlarimiz, raqqosalarimiz o'zgacha bir dard, o'zgacha bir

jo'shqinlik bilan mas'uliyatlarini ado etishar ediki, bu hozirgi musiqali drama aktyorligi maktabiga asos bo'lgan an'analar asosida yaratildi. Bunday ustoz san'atkorlarimiz dramaturgiyada Komil Yashin, Sobir Abdulla, rejissurada Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Muzaffar Muxamedov, Razzoq Xamroyev, Zuhur Qobulov, Qudrat Xo'jayev, Rustam Ma'diyev, bastakorchilikda Yunus Rajabiy, To'qtasin Jalilov, Tolibjon Sodiqov, S.Yudakov, M.Leviyev, Farxod Olimov, Baxrullo Lutfullayev, aktyor ijrochiligida Ma'suma Qoriyeva, Halima Nosirova, Lutfixonim Sarimsoqova, Mahmudjon G'ofurov, Shahodat Rahimova, Mukarrama Azizova, E'tibort Jalilova, Farog'at Rahmatova kabi va yana bir qator san'atimiz fidoyilari o'zlarining ijodlari orqali teatr maktabini rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar. Ular teatr san'ati bilan boshqa san'at turlarining uyg'unligi muvaffaqiyatini o'zlarining mohirona yaratgan ijodlari bilan isbotlashdi.

Xalq tomosha qilayotgan asaridan, o'z dardini, aytmoqchi bo'lgan so'zlarini, javob topa olmayotgan savollarini yechimini qidiradi. Bu bo'lsa yaratilayotgan spektaklning muvaffaqiyati yoki mag'lubiyatini o'lchovchidir. Har bir tomoshabin tanlash huquqiga ega bo'lgani uchun ham, ijodkorlarimiz doimiy izlanishda bo'lishlari zarur. Dramaturglarimiz tomonidan bo'sh asarlar yaratilishi, o'rtamiyona aktyorlarni bisyorligi, rejissyorlarning sayozligi eng nozik muammolaridir.

Ko'pincha musiqali drama asarlarida musiqa, so'z bilan, sahnaviy xatti-harakat bilan bog'lanadi. Kuylashni o'z kasbi deb bilgan har bir inson, professional ovozga ega bo'lishi bilan birga, ifodali, chiroyli, savodli kuylashi shart. Kompozitsion tuzilish quyidagi bo'lak (punkt) lardan iborat bo'ladi. Adabiy asarda voqeaning boshlang'ich qismi muqaddima, ekspozitsiya yoki kirish, rejissura sohasida esa xatti-harakat bilan bog'liq bo'lganligi uchun prolog deb nomlanadi. Demak, kirish (prolog), tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta, yechim – adabiy va dramatik asarlarning kompozitsion tuzilishini tashkil etadi.

Ba'zan senariyning kompozitsion tuzilishini prolog, epizodlar qatori va final bilan belgilash mumkin. Chunki ko'pgina spektakl tomosha, teatrlashtirilgan konsert va boshqa tadbirlarda voqea bir mavzu ustida emas, bir necha epizodlardan iborat bo'lib tashkil

qilingan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham har qanday spektakl senariysining kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilash sahnalashtirilayotgan bayramlarning mohiyatini to'laqonli yoritib berishga xizmat qiladi.

Musiqali dramada kuylash texnikasini egallash, ovozni sozlash va uni sahnaviy hatti-harakat bilan mutonasib olib borishdek vazifa asosiydir. Musiqa nazariyasida kontilena degan ibora bor. Kontilena mayin, uzluksiz, jozibali tovush san'atidir. Yaxshi kuylovchi bo'lish uchun shu kontilena san'atini puxta egallash kerak, tovushni shunday shakllantirish kerakki, u mayin, ohangdor, jarangli sifatlarga ega bo'lishi shart.

Ifodali kuylash bu maqsadga muvofiq kuylashdir. Kuylashda, har qancha u go'zal bo'lmasin, tuyg'uni "umuman" ifoda etib bo'lmaydi. Lirik, dramatik, tantanali, hayajonli, shiddatli, mungli, muloyim va hokazo kabi kuylash mumkin. Ammo bu ko'p sonli kuy turlariga, aniq qo'yilgan maqsadda, xatti-harakatda, berilgan shart-sharoitda, ya'ni aktyorlik mahoratining butun kompleksi orqali erishiladi. Eng go'zal va kamolotga yetgan inson ovozi, tuganmas, emotsional xolatlarni beruvchi musiqiy asbobdir. Ammo haqiqatdan ham, qobiliyatli kuylovchining yaxshi kuylashi, doimo qahramonning aniq hissiyotini va ehtirolarining haqiqatligini xatti-harakatda ifodalaydi. Qobiliyatli kuylovchi aktyorlar hamma vaqt ijodiy jarayonda fikrni ifodalaydilar.

Musiqali drama spektakllarida ba'zan shunday holatlar kuzatiladiki, ayrim artistlar dramatik parchalarda juda yaxshi natijalarga erishsalarida, musiqiy bo'laklarda esa no'noq bo'lib qolishadi. Ularning vazifalari, notalarni musiqiy savodli aytish bilan chegaralanadi. Musiqiy bo'laklarni ishlash, dramatik bo'laklarni ishlash kabi murakkab jarayonni talab qiladi. Agar kuylovchi aktyor rol tuyg'ularini oxirigacha tushunmagan va uni badiiy saviya orqali, partituraning xatti-harakati orqali tekshirmagan bo'lsa tuyg'uni eng kuchli ifodalanishi yuzaki ma'nosiz chiqadi.

Badiiy saviya, xatti-harakat partiturasini, mutloq o'zini nazorat qilish intuitsiyasi, sezgini yo'naltiradi, tasavvurni, hissiyotni rivojlantiradi va kuylovchi aktyorga aniq bir obraz yaratishda yordamlashadi. Bunday ravishda ijodiy jarayonga bo'lgan munosabat, mana shu san'atning negizi bo'lgan kechinmaga olib keladi. Drama aktyorlari kabi kuylovchi-aktyor

uchun ham kechinma san'ati zarur. Kuylovchi aktyor kechinma san'atida obraz, qahramonning harakterini yaratishda ifodaviy, ma'noli, xatti-harakatli kuylashdan boshlaydi. Faqat shundagina badiiy musiqaviy obraz, sahnaviy qahramon vujudga keladi. Bunda nafaqat ijrochi o'z ovozi rivojlantirishi talab etiladi, balki asar g'oyasini tushinib yetgan holda, so'z va musiqani uyg'unligi orqali tomoshabinga yetkazishidir. Yorqin badiiy musiqiy spektakl yaratish uchun artistlarda ashula ijrochilik malakalari va ijrochilik texnikasi shakllangan bo'lishi kerak.

Ashulachilik siymosi nimadan iborat? Ashulachilik-siymosi cheklanmagan bo'lib, inson xarakterini, uning tuyg'usini, kayfiyatini, maishiy, tarixiy, siyosiy qarashlari kabi qirralarini o'z qamroviga oladi. Bu bilan ashulachilik siymosi, avvalam bor, musiqiy ovozli siymo bo'lib, taronaning ichki mohiyati bastakor musiqasida berilsa, ichki va tash-

qi ruhiy xatti-harakatliliigi esa musiqiy dramaturgiyada belgilangan. Demak kuylovchi aktyorning o'ziga xos tarafi shundan iboratki, u ifodalantirgan siymo harakterini, xatti-harakatining qonuniyligini, tuyg'ularini va ehtiroslarining haqqoniyligini ashula musiqasining o'zidan topadi. Obraz yaratish uchun, rolning ichki holatidan kelib chiqish kerak. Bu esa ifodaviy xatti-harakatli kuylardan sahnaviy personaj hayotining haqiqatligiga o'tishdir. Tovush va so'zning uyg'unligi faqat hofizning ovozida bo'lishi mumkin.

Ovoz ustida ishlash, bu uzoq va asta-sekinlik bilan qo'lga kiritilgan yo'l bo'lib, u talabadan sabr toqat va e'tiborli bo'lishni talab qiladi. Bilim olish uchun ajratilgan to'rt yil ichida mukammal aktyorni tayyorlash, uni ovozini, aktyorlik mahoratini, nutq va raqsini professional darajaga yetkazish, bu juda mashaqqatli yo'ldir. Afsuski, bunday qisqa muddat ichida har doim ham istalgan natijaga erishib bo'lmaydi. Ayrim talabalarda ohangni noaniqligi, siqiqligi yoki yuqori tovushlarning yetishmasligi namoyon bo'ladi. Talabani to'g'ri shakllanishi uchun, uning oldiga qo'yilgan aktyorlik va ashulachilik vazifalari to'g'ri bo'lmog'i kerak.

Musiqali drama aktyorlarining ijrochilik san'ati ko'p qirrali va murakkabligi bilan ajralib turadi. Musiqali drama o'ziga xos bo'lgan spetsifik tomonlari bilan qo'shiq aytish, aktyorlik mahorati, nutq, raqs kabi

san'atlarni o'zida birlashtiradi. Bularni hammasi, yuksak kuylash texnikasini, jonli nutqni, aktyorlik va raqs mahoratini tushunib, ularni professional darajada egallashni talab qiladi. Musiqiy drama aktyorining professional ishida nutqdan kuylashga odatiy o'tishlar, talabadan shunday tayyorgarlikni talab qiladiki, bir tomondan tovushga ziyon keltirmasligi, ikkinchi tomondan esa, aktyor ijrosida soxtalik bo'lmasligi shart.

Kuylovchi aktyor ko'p qiyinchiliklarni yengishi kerak, lekin eng katta qiyinchilik qo'shiqchilik san'ati va kuylovchi aktyor san'atini aniq tushunishdadir. Qo'shiqchilik san'ati, yuqorida aytganimizdek, ashula san'ati texnik, estetik va ma'noli tomonlarini o'rganishdir. Kuylovchi aktyorning san'ati esa, haqqoniy musiqiy sahnaviy obrazni yaratishdir.

Haqiqatdan ham ovoz eng go'zal va kuylovchi aktyorning zarur bo'lgan quroli. Ammo, faqat ovozligina bo'lgan insonni kuylovchi deb ham bo'lmaydi, xuddi bo'yoqqa to'la qutilarga ega bo'lgan insonni rassom deb bo'lmaganidek, bo'yoq qutichasi bu vositalardan biri bo'lib, u orqali san'at asari vujudga kelishi mumkin. Xuddi shunday ovoz, san'at asarini vujudga kelishidagi sahnaviy ashulachilik vositalaridan biridir va bunda sahnaviy siymoni yaratish uchun yanada ko'proq narsalar talab qilinadi.

Ayrim talabalarda ohangni noaniqligi, siqirligi yoki yuqori tovushlarning yetishmasligi namoyon bo'ladi. Talabani to'g'ri shakllanishi uchun, uning oldiga qo'yilgan aktyorlik va ashulachilik vazifalari to'g'ri bo'lmog'i kerak.

Ko'pincha kuylovchi aktyor tarbiyalanishida eng asosiy fikrni ovozning jismoniy holatiga qaratiladi, agar muhim vositalarini ikkinchi darajali-deb qaralsa, kuylovchi aktyorning san'ati ma'nosiz bo'lib qoladi. Albatta chiroyli ovoz bizni hayajonlantiradi. Shu ovozning go'zalligi bizni eshitishda hayratlantirib yuboradi. Keyinchalik agar biz go'zal ovozdan tashqari hech narsa eshitmasak, kuylovchi bizning tasavvurimizni uyg'otmasa, talabimizga javob berolmasa, bizni xayratlantirolmasa, biz bunday ovozdan qoniqmagan bo'lib, balki undan ta'sirlana olmaymiz. Shunday ajoyib ovozli qo'shiqchilar borki, ular ovoz apparatini ishga sola oladi va boshqara oladilar. Ular chiroyli nolalar, xohlagan vaqtda xoh sekin, xoh baland kuylay olishi mumkin. Lekin ularni, deyarlik hammasi,

notalarni va ularga so'z yoki bo'g'inni qo'shib kuylaydilar. Eshituvchi ba'zan ularni nima haqida kuylayotganini anglay olmaydilar. Bunday qo'shiqchilar go'zal, yuqqori notalarda bemolol kuylay oladilar. Ammo bu kuylovchilar bir kecha davomida bunday kuylashda bir necha ashulani ijro etishsa, qo'shiqlari xoh sevgi, xoh nafrat haqida bo'lmasin ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bunday kuylovchilarda rang-barang obrazlar bir-biridan farqlanmaydilar. Ular o'z tovushi orqali mujassamlashtirilayotgan siymoga badiiy harakter berishdan hayiqib, doimo "o'zlarining" nomidan kuylashadilar. Ular siymo yarata olmasdan, faqat ovoz kuchini ko'rsatadilar. Bu borada kuylovchilarning ijrosida haqqoniy san'at yo'qligi ma'lum. Demak kuylovchida ovozning o'zi bo'lishi yetarli emas. Yaxshi kuylovchilarning o'rta meyordagilardan farqi shundaki, ulardagi ijro musiqiy dramaturgiyasining qonunlariga asoslanib, musiqiy qo'shiq siymosidan kelib chiqadi. Bu, oldiga qo'yilgan murakkab vazifani bajarishda, Ya'ni aniq musikiy, xatti-harakatli, jonli siymoni yaratishda yordam beradi. U o'zining rivojida asarni u yoki bu mavzusini ochib, boshqa siymolar bilan, o'zaro xatti-harakatda spektaklning va asarning asosiy g'oyasini ifoda etadilar.

Ana shunday vazifalardan kelib chiqib, biz musiqali teatr aktyorlarini T Murod, B Lutfullayevning "Oydinda yurgan odamlar" asari orqali tarbiyaladik. Har bir kuylovchi aktyorni kuylashida, dramatik lavhalarda uyg'unlik konsepsiyasiga amal qilgan holda sahnaviy talqinga erishishni maqsad qilib qo'ydik. Muallifning berilgan sharoitini sahnaviy ifodasiga erishishimiz uchun har bir personaj hatti-harakatida ifodalanishi kerak bo'lgan sahna haqiqatiga erishish uchun harakat qilindi.

Asardagi har bir personaj o'zining sahnadagi jismoniy-ruxiy hatti-harakatiga erishishi va shu xolatini kuylashda davom ettirishini ta'minlashga xarakat qildik.

Barcha personajlarning bir-biriga o'zaro aloqasi va ko'zlangan maqsadga erishishda mutunosiblikka erishishimiz yaxlitlikka va sahnaviy haqiqatga erishishimiz maxsuli bo'ldi. Bu spektaklimizning "Talaba yoshlar ijodiyoti" festivalidagi e'tirof etilishi bo'lib, eng yaxshi rejissyor, eng yaxshi erkak roli, eng yaxshi ayol roli, yorqin epizodik rol uchun nominatsiyalarni qo'lga kiritishimizdir.

Mustaqillikdan keyingi yillarda barcha sohalarimiz kabi, musiqali drama teatrida ham yangicha qarashlar, o'zgarishlar bo'lgani quvonarli holdir. Yaratilayotgan asarlarga ijtimoiy-madaniy hayotimiz, ma'naviy, mafkuraviy g'oyalarimiz yo'g'rilgani, mentalitetimiz, urf-odatlarimiz, singib ketishi xalq ongi, ruhiyati uchun juda muhim omil bo'ldi. Natijada o'zbekonalik ufurib turgan asarlarimiz ko'paydi. Ularning badiiyotini yuksak deb ayta olmasakda, har holda tomoshabinlarga ma'naviy, ma'fkuraviy ozuqa bo'la oladigan asarlar qatorida qarshiladik.

Savol topshiriqlar

1. Sahnaviy xatti-harakat tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Sahnaviy talqinni qanday yuzaga keltirasiz?

2.2 Sahnaviy asarda voqealar tizimi

Asar insseniroykasi tayyor bo'ldi. Guruhda ijodiy ish boshlandi. Ta'lim tizimining ikkinchi va uchinchi bosqichlarida ushbu asardan sahnaviy ko'rinishlar ustida ishlaganimizga qaramay, ular biroz qurqishdi. Ammo suhbat jarayonida o'ziga xos tug'ilgan sahna ko'rinishlarni nazariy to'shintirib berish natijasida talaba ijodkorlar jarayonga berilib ketishdi. Jarayonda o'zlarini ijod ustaxonasida ko'rgandan keyin talabalar hayajon bilan sahnaga intilisha boshladi. Ustozlarning sahnadagi harakat va asar haqida chuqurroq bilimga ega bo'lish uchun qilgan sa'iy harakatlari orqali ular asar haqida ko'p bilishga intilar edilar. Bu borada kurs badiiy rahbaridan kuproq eshitishga, qolaversa bir necha yillardan buyon shu institutda amaliy va ilmiy ishlarni ustosiga aylangan, sahna nutqi o'qituvchisidan ma'lumotlarni kuproq eshitishga oshiqishardi. Har bir talaba bilan yakka ishlash jarayoni qizg'in boshlanib ketdi. Biz, charchaganimizni, vaqtning qanday o'tganligini ham sezmasdik. Kundan-kunga samara berayotgan «individual yondashuv» asar to'g'risidagi amaliy tajriba va aniq ilmiy asoslangan fikrlar, talabalarda mana shu musiqali dramani chuqurroq egallashga va qo'lga olishga, qolaversa dadil qadam tashlab, sahna variantini yaratishimizga quvvat bo'ldi. Har bir talaba bilan asar to'g'risida, obrazlar, kiyim, pardoz, sahna ko'rinishi,

sahnada foydalanadigan jihozlar, sahnaga beriladigan nurlar, sahnaviy improvizatsiyalar ustida tinimsiz izlanish boshlandi.

Nihoyat bu asar bilan tomoshabinga nima demoqchimiz, qaysi personajlarni qoralaymiz-u, qaysilarini oqlaymiz, bosh g'oyamiz nima? - degan savollarga javob izlashni boshladik. Ish jarayonida talabalar bilan birgalikda ushbu savollarga gohida qoniqarli, gohida qoniqarsiz fikrlarga to'qnash kelar edik. Ulardan asar negiziga, ildiziga chuqurroq yetishimiz kerakligini, bu borada shoshmashosharlikka yo'l qo'yib bo'lmasligini tushunib yetdik. Eng quvonarlisi, talabalar to'g'ri fikrlayotganini, chuqurroq bilishga harakat qilishayotganligini, boshlayotgan ijodiy ishimizning boshlang'ich tamal toshi qutlo'g' qo'yilayotganligi biz uchun quvonarli edi.

Asarning asosiy qahramoni Qoplon roliga talabalardagi imkoniyatlarni qidira boshladik.

Shu o'rinda guruhdagi 12 nafar o'g'il bola talabalar ichidagi Abduqodir Panjiyev, Borot Orzimatov, Eldor Tursunovlarni sinab ko'rish rejalashtirildi.

Endi asar personaji haqida fikr yuritadigan bo'lsak:



Qoplon – Og'ir, bosiq. Qat'iy. Mehnatsevar fidoiy. Qishloq yigitlari ichida ajralip turadi. Har bir harakati va so'ziga sobit.

Tog'oy Murot bu personaj orqali Surxon vohasi kishisini tiniq, o'ziga xos jixatlariga ega insonni gavdalantiradi. Ota-ona uning uchun ilohiy ma'buda, ammo Oymomo bilan o'rtalaridagi shaffof-muxabbat uni kurashga o'rgatadi. O'zi uchun Oymomosi uchun unga qarshi bo'lgan ota-onasining istaklarini rad etadi.

Bu obraz o'z ifori, ta'siri bilan kishini befarq qoldirmaydi. Uning asosiy maqsadi oilani saqlab qolish va Oymomo bilan o'rtalaridagi muhabbat mevasi Xushvaqtni tezroq ko'rish. Ammo bu borada barcha to'siqlarni mardonavor yengib o'taoladimi yoki ikkilangan holatlar qanday kechadi.

Abduqodir Panjiyev asli Surxandaryo viloyatidan bo'lib xarakteri og'ir, bosiq ko'p gapiravermaydi hattoki bergan savolingga zo'rg'a javob

olasan. Unda aktyorlik qobiliyat, tabiiylik, sahnaviy erkinlik, plastika, mavjud bo'lib u tug'ri va ishonarli fikrlaydi. Ovoz imkoniyati esa juda yuqori darajada emas. Asarga yozilgan ariyalar ham "bariton" ovozli aktyorlarga atab yozilgan, yuqari pardalari aytarli darajada baland emas. Shu bois u musiqiy tarafdin ham shu rolga to'g'ri kelardi. Unga ishoch bor edi. Chunki Abduqodir, institutdagi qushiqchilik kafedrasining kuchli, har tomonlama yetuk va mehnatkash, keksa, tajiribali professori Saidazim Muradxonov sinfida tahsil oladi.

Domla bilan maslahatlashganimda ham qurqmasdan sinab ko'rishimni, qanday yordam kerak bo'lsa berishini, qolaversa tezda Qoplonning ariyalarini o'zlashtirishni boshlashni takidlab o'tdi. Endi faqat talaba bilan tinimsiz mehnat qilish, asar muallifi tomonidan berilgan shart-sharoit, rejissyor tomonidan aytilajak, o'rtaga tashlanajak fikr, bastakor tomonidan yozilgan musiqiy g'oyani singdirish kerak edi. Bu borada o'stozlar Axmadjon To'laganov va Boir Xolmirzayevlar bilan birgalikda spektakl ustida ish olib borildi. Ustozlarning be'minnat o'g'itlari besamar ketmaganligini spektakl premerasidan kegin sezildi.

Bundan tashqari kursda tahsil olayotgan talabalardan ikkitasiga, Ya'ni Borot Orzimatov, Eldor Tursunovlarga ham Qoplon rolida o'zlarini sinab ko'rishni taklif qildim.

Orzimatov Borot asli Farg'ona viloyatidan bo'lib xarakteri yengil, hazilkash, bunday og'ir rolni uddasidan chiqolmasligini stulda o'tilayotgan ijodiy ish, Ya'ni asarni o'qish jarayonining birinchi kunlaridan tan olib taslim bo'ldi. Uning "domla men bunday og'ir, har tomonlama kuchli yozilgan asarning qahramoni Qoplon rolini tushunib yetishimga hali ancha bor ekan. Qolaversa hali rolning ichki mohiyatini xis qilishimga, ishonarli va ta'sirchan etib ijro etishga tayyor emasman" – dedi. Haqiqatdan ham bu talabam aktyorlik kasbi uchun eng kerakli bo'lgan birinchi bosqichda o'tiladigan bir qancha mashqlarni o'zining dangasaligi, qolaversa o'ziga haddan ziyod ishonuvchanligi natijasida o'tay olmagan. Uning tushunchasi bo'yicha aytadigan bo'lsam ishlamasdan, izlanmasdan to'rib, Ya'ni sahnaga chiqishi bilan zo'r qilishiga, hammani qoyil qoldirishiga bo'lgan ishonch kuchli edi. Men harchand bu noto'g'ri ekanligini tushuntirishga harakat qilganim sari u mendan o'zini olib qochardi. Hattoki talabalar

uchun zerikarli bo'lib ko'rinadigan predmetsiz hatti-harakat mashqidan juda qiynalgan, bu jarayondan o'tmagan desam ham bo'ladi. Mana oqibatini ham o'z ko'zlari bilan ko'rib tan oldi va noto'g'ri qilganligini bilganida esa kech bo'ldi. Balki kelajakda o'z ustida tinimsiz ishlasa yaxshi bo'lar. Ovoz imkoniyatlari ham aytarli darajada emas, Ya'ni bir so'z bilan aytganda musiqali teatr aktyorlari uchun to'laligicha javob bermaydi. Talaba yuqtirilgan to'g'ma istidodiga haddan ziyod ishonadi va shu yo'nalishda ketishni juda hoqlaydi. Bu "O'xshatish" san'atidir. Har holda bu yo'nalishni maromiga yetkazib egallab, yaxshi yutuqlarga erishib kelmoqda. Hattoki institut "O'quv teatrida" ikki marotaba, mustaqil, maqtasa arzigulik, professional darajada shaxsiy "Binefisini" taqdim etdi va talabalar, qolaversa professor o'qituvchilar orasida o'z qobiliyatini yaxshi namoyon qildi.

Eldor Tursunov Qashqadaryolik bu talabaning tartib intizomi, o'qishga, o'rganishga bo'lgan intilishi yomon emas. Hattoki kursdoshlarini ijod qilishga izlanishga chorlab izidan ergashtirib yuradi. Qolaversa rejissyora san'atiga qiziqishini ham ko'p bora kuzatganman. Lekin ikki yarim yil moboynda aktyor uchun eng kerakli bo'lgan sahnaviy erkinlik, plastikasi ustida tinimsiz ishlashga to'g'ri keldi. Sababi rolga tayyorgarlikni stol ustida ishlash jarayonida bu unchallik darajada sezilmasligi mumkun. Lekin sahnaga chiqqanimizda bu holat yaqqol sezilib, talabaga o'z kuchini ko'rsatdi. Talabaning bu rolga bo'lgan qiziqishi juda kuchli edi. Natijada kup mehnat qilib rol mohiyatini, muallif tomonidan berilgan shart sharoitga kirishga, qolaversa pedagog rejissyor tomonidan qo'yilgan vazifalarni o'zlashtirishga harchand urunmasin baribir sahnada rolga kirganda undagi siqqlik va qotib qolish unga pand beraverdi. Gohida unga erinmasdan bu jarayondan chiqib ketish uchun boshqa vazifalar, tushuntirishlar, hattoki birinchi kursda egallanadigan sahnaviy erkinlikka erishish uchun o'tiladigan mashqlarni qaytarishimga to'g'ri keladi va talaba bu jarayonni o'tagandan kegin ancha o'zini qulga olib erkin hatti-harakat qila boshlaydi. Hattoki ba'zi bir ko'rinishlarida ustozlarni hayratga soladi. Demak aktyor tajiribali, yoki yosh o'rganuvchi, iqtidorli bo'lishidan qa'tiy nazar, muallif tomonidan yozilib, bastakor tomonidan musiqa bastalanib, rejissyor tomonidan sahnaga chiqishidan

oldin o'zi uchun kerakli bo'lgan mashqlarni bajarib chiqsa maqsadga muvofiq bo'lishliyligiga yana bir bor ishonch hosil qilaman. Orada bir ikki kun boshqa sahnalarni ko'rib bu talaba bilan ishlab tushuntirilgan sahnalarga qaytsam, yana noldan boshlashimga to'g'ri keladi. Shuning uchun aytsa kerakda "mehnat, har doyim ham samara beravermasligi, muvaffaqiyat olib kelavermasligini" deb qo'yaman o'zimga tasalla berib. Eldor Tursunov bilan ishlash jarayonida mana shunday qiyinchiliklarni yengib utishimga to'g'ri keldi. Oxir oqibat spektakldagi asosiy rolda ishtirok etayotgan talabalarim, qolaversa umuman spektakl xususidagi izlanishlarim to'g'risida yanada to'laqonli bilish va ishonch hosil qilish maqsadida "Musiqali teatr san'ati kafedrası" mudiri Nasurulla Qobilov boshchiligidagi kafedra a'zolarini qolaversa ilmiy rahbarim O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Teshaboy Bayandiyev va "qushiqchilik kafedrası" mudiri, asar bastakori O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi professor Baxrulla Lutfullayev boshchiligidagi kafedra a'zolarini taklif qildim. Bu o'z samarasini berdi, natijada spektaklning bosh qahramoni rolini Abduqodir Panjiyev tinimsiz mehnatlarimiz natijasida muvaffaqiyatli olib chiqishning uddasidan chiqdi.

Talabalar bilan suhbatda sahnadagi ruhiy-jismoniy xolatlarga qanday erishish haqida ularga avvallari egallagan bilimlarini eslatish, yoki asarning ayrim epizodlarini sahnada ijro etish orqali singdirib borildi.

Ikki-uch talaba o'z ustida ish boshladi. Talabalardan Abduqodir Panjiyev bilan Eldor Tursunov bu ishga butunlay berilib ketdilar. Ammo Borot Orzimatov ma'suliyatsizligi oqibatida bu imkoniyat unga nasib etmadi. Endi ikki talaba o'rtasida ijodiy raqobat boshlandi. Eldor Tursunovdagi ichki siqqlik imkoniyatini ochib berishga tusqinlik qildi. Shu bois ko'proq Abduqodir Panjiyevning hatti-harakati o'z natijasini ko'rsatdi. Eldor Tursunov bizga kichik mezon sahnalarni qo'yilishida, yangi-yangi fikrlarni bera-boshladi. U bizga rejissuradan yordam beraboshladi.

Oymomo timsoliga ham 2-3 talabgor talabalar ko'zga tashlandi. Bular Rayxon Sayliyeva, Sayyora Xalimovalardir. Ularning kursdagi faoliyatlaridan kelib chiqib Oymomo rolida sinab kurishga qaror qilindi.

Rayxona Sayliyeva – Buxora viloyatidan. Sahnaviy nutqiy va musiqiy ovozga ega. Sahnada erkin. Berilgan vazifani ko'ngildagidek bajaraoladi. Sahnadagi harakatlarida haqiqat mujassam.. Xarakterida osovlik.

Oymomo roli ijrochisi, kurs sardori Rayxona Sayliyeva to'g'risida fikrlashib olsak. “Musiqali teatr san'ati” bo'limiga har yili abiturentlar qabul qilinadi va har tamonlama mukammal istidodga ega, musiqali teatr aktyorligi kasbini egallashga layoqati yetarli bo'lgan yigit va qizlar kamdan-kam hollarda talaba bo'lishdek baxtga muyassar bo'ladilar. Chunki ijodiy imtixonlardan yuqori ball olgan abiturent test sinovlariga kelganda oqsab qolishi tajiribada ko'p ko'zatilgan. Rayxon ijodiy imtixonga kirib kelganda uning sahnaviy ko'rinishi, ovoz imkoniyati, masal, she'r, monolog ijrolaridagi mahoratini ko'rib “mana bitta bo'lsa ham musiqali qiz keldi” deb quvongan edik. Test sinovlaridan past ball olganligi uchun, to'lov shartnomasi asosida o'qishga qabul qilindi. O'qishning birinchi kunlaridan boshlab u o'z odobi, mehnatkashligi bilan kurs talabalari orasida yetakchilik qila boshladi. O'qishning birinchi kunlarida Rayxonning odobi, mehnatkashligi, qat'iyatligi, tirishqoqligi, cho'rtkesar, bir-so'zligini ko'rgan kurs o'qituvchilari va talabalar tamonidan o'tkazilgan majlisda Rayxon kurs sardori etib tayinlandi. Shu o'rinda aytib o'tadigan narsa, ba'zi bir talabalarning ixtidori zo'r bo'ladi. Shu ixtidorni o'stirish, rivojlantirish o'rniga o'zida boridan foydalanib, san'atning cho'qqisiga chiqmoqchi bo'lishadi. Tabiyatdan berilgan zo'r istidoding bo'lmasin o'z o'stingda tinimsiz mehnat qilmas ekansan bo'ning iloji yo'qligini o'z vaqtida to'shinib yetishlari shart. Aks holda o'zida bor iste'dod ham yo'qqa chiqadi. Rayxon buni tushinib yetti va har darsda hattoki darsdan tashqari ham talabalarni atrofiga yig'ib tinimsiz ishlaydigan izlanadigan bo'ldi.

Sayyora Xalimova – Buxora viloyatidan. Lirik ovozga ega bu qizimiz juda mehnatkash bo'lib tinimsiz izlanadi. Tartib intizomi a'lo darajada. Musiqali teatr aktyorligi yo'nalishiga har tomonlama thg'ri

keladi, faqat bo'yi pastiroqligini xisobga olmasa. Gohida xissiyotga berilib ketadi. Shu bois ko'proq g'am anduxda ko'z yosh qiladi. Xarakteri da moyillik seziladi.

Oymomo – qishloqning eng suluv qizi. Axdiga sodiq. Qoplon yigitga moyilligi bor. Moyillik sekin asta sof muxabbatga aylanadi. Ular qovushadilar ammo oila qurilgach ularning hayotida qarama-qarshiliklar, qaynona – qaynota oralig'ida qiyinchiliklar vujudga keladi. Ikki yosh ulardan qanday utadilar. Ana shu muommalar ish jarayonida ruyobga keladi.

Qimmat momo: (Atrofga alanglab qarab) Bolalarning gapini birov eshitmasin deyman-da, bolam. Hozirgi zamonning odamlari yomon bo'p ketgan, bolam.

Momosi: (Jiddiylashib, biror yangilik aytsa kerak degan umidda) Ayta bering, uy ovloq, ayta bering.

Qimmat momo: (Tamog'ini qirib yutunib) So'ramoqdan ayb yo'q, deydilar... Birov yarim bilan... bordi keldi qilib ko'rmadingizmi, bolam?

Momosi: (Ma'nosiga tushunmay) U nima deganingiz?

Qimmat momo: (Mazza qilib uzoq kuladi) Sodda bolamdan-da, soddagina bolamdan-da. Sodda ko'p yaxshida. Soddalik ko'ngil tozalik bo'ladi. Soddagina bo'laginamdan aylanayin. Sodda bolamdan o'rgilayin. Shu... birov-yarim bilan deyman man... yotib deyman...

Momosi: (Jiddiylashib) Nima-nima?

Qimmat momo: (Tushuntirishga harakat qilib, cho'zib gapiradi) Birov yarim bilan yotib... o'zingni bir sinab ko'rmadingmi, deyman...

Momosi: (O‘zini bosishga harakat qilib) Og‘zingizga qarab gapiring momo, og‘zingizga qarab gapiring!

Qimmat momo: (Endi jiddiylashib, Momosiga tushintirishga harakat qilib) Og‘zimga

qarab, gapirsam-gapirmasam, bolam. Gulday umringni zoya ketgazib nima qilasan, bolam...

Momosi: (Joyidan turib yeb qo‘ygudek Qimmat momoga qarab) Qanday birov-yarim bilan, qanday birov yarim bilan?! Boshimda haq nikohlik egam turibdiku!!!

Qimmat momo: E-e usha haq nikohlik egangdan, yorug‘lik chiqmasa, nima qilasan, bolam...

Momosi: Nima demoqchisiz – A, nima demoqchisiz?!



Qimmat momo: Ana, ferma mudirimiz bor, uyurdagi ayg‘irday bo‘p yuribdi... U bo‘lmasa, ana brigadirimiz bor, kelbati egiz tug‘diraman, deb turibdi...

Momosi: (jim nima qilarini bilmay)

Qimmat momo: (Biroz qarab turib kuygan bo‘lib) Uf-f-f! – Shunday xushro‘y ayol tirnoqqa zor-a, tirnoqqa-ya! Xudo itga bergan tirnoqni, bitga bergan tirnoqni nima qilardi deng, shu bolaginamgayam bersa!



Momosi: (teskari o'girilib keskin) Keting! Hoziroq keting! (Qurbonboy va Qoplonning tashqaridan ovozi eshitiladi.)

Qurbonboy: Ha o'g'lim. Uyimizdan ilon chiqqanmi.

Qoplon: Yo'q ota, nimaga unday deysiz.

Qurbonboy: Bo'lmasa nega qorangni ko'rsatmaysan. (Qurbonboy, Qoplon va Onasi kirib keladi.)



Qoplon, Ona, Ota va Qimmat momo.

Qurbonboy: Qani, (Qo'llarini yoyib) Qozon to'la osh bo'lsin yostiq to'la bosh bo'lsin. (duo qiladi) Tokaygacha shunday yuraverasan? Javobini berda qo'y.

Onasi: (yig'lamsirab) Uf-f, kunma-kun oyoqdan qolyapman, nevara ko'rolmay o'tib ketamanmi endi.

Bobosi: Nevarangiz ko'p-ku, ena...

Onasi: (nasihat beradi.) Har bir gulning o'z hidi bo'ladi. Boshqa nevaralarimning yo'rig'i boshqa, sendan ko'radigan nevaralarimning yo'rig'i boshqa.

Qurbonboy: Sen qatorilar bolali bo'ldi. O'g'li borning o'zi bor, qizi borning izi bor. Umr o'tyapti. Bo'laringda bo'lib o't, bo'z yo'rg'aday yelib o't.

Bobosi: Yelib – yuguryapmiz, berib qolar.

Qurbonboy: Bersa shu vaqtgacha berardida. Ayolingning gapiga kirma! Ayoling aldab yura beradi. Ayoling bugun u deydi, ertaga bu deydi... O'zi – ku pushti kuyib ketibdi ekan... Endi, senida so'qqabosh o'tkazadimi?

Bobosi: Nafaslaringizni issiq qilingizlar... (momosiga qarab) Bor mol-hollaringga qara.

Qimmat momo: Aka bularingizga yaxshilik yoqmaydi. Kuyganingizga arzimaydi bular. (chiqib ketadi)

Qurbonboy: Nafasimizni issiq qilmay nima qilyapmiz? Qozon to'la osh bo'lsin, yostiq to'la bosh bo'lsin deyapmiz.



Qoplon, Ona, Ota, Oymomo va Qimmat momo.



Onasi: E-e-e, ota! Xotin meniki! Buyog‘ini o‘zimga qoyingda endi.

Qurbonboy: Aytmasangda, ayol seniki, bari gap senda.

Bobosi: Bo‘ptida!

Qurbonboy: Bir og‘iz gapni aytib, javobini berib yuborish shuncha qiyinmi? A... qiyinmi?

Bobosi: Tinch qo‘ying ota, tinch qo‘yinglar. (o‘rnidan turib ketadi)
Boring, ota, boring, baraka topinglar!

Qurbonboy: (angrayib) Nima-nima?!

Bobosi: Tinch qoyasizmi yo‘qmi, deyapman.

Qurbonboy: Qo‘ymayman! Nima deysan, qo‘ymayman!

Bobosi: Qo‘ymasangiz ana katta ko‘cha!

Qurbonboy: (Ota og‘zidagi og‘zida, bo‘g‘zidagi bo‘g‘zida qoladi) Ha-a-a!!! Sen hali meni uyingdan haydayapsanmi?! Meni-ya?!

Bobosi: Haydayatganim yo‘q, tinch qo‘ying, deyapman!

Qurbonboy: Xa-a-a-a!!! Meniya?! O‘z otangni-ya?! Xe enangni...

Omin, o‘z otangni uyingdan haydagan bo‘lsang, iloyim, kosangni tagi oqarmasin! O‘lsang otamlab yig‘lovching bo‘lsin, Olloxu Akbar! (Ota shaxt bilan chiqib ketadi, Onasi ham otasi, otasi deb yig‘lab chiqib ketadi)

Bobosi: (Bobosi izidan) Ota, qarg‘amang iltimos!... Siz noto‘g‘ri tushindingiz. Otajon, qarg‘amang!!!... qarg‘amang!...otajon!!! qarg‘amang!... qarg‘amang!!!... (Orkestorda “Men yorimdan kecholmasman” duet boshlanadi)

“Men yorimdan kecholmasman” duet
Oymomo va Qoplon



Ota qarg‘ishi.

Мен ёримдан кечолмасман

Дуэт

38 *Sostenuto*

Piano *mp*

Оймомо **39**

mf Ди-лим кал-би - га пай- вас - та ка- ро - рим-дан

mf ко-чар-ман мен бубун - ё - дан ма- до - рим-дан

mp

ке - чол - мас - ман

ке - чол - мас - ман Не гур - бат - лар бул - са хам - ки чи-даб так - дир

mf Ке - чар - ман мо - лу жон - дан - ки ни - го - рим - дин

mf

и - жоб эт - гил
ке - чол - мас - ман

mf

mp Халос эт - гил бу дард лар - дан бо - бо - си - дан ке чол - мас - ман

Халос эт - гим будард лар - дан мо мо - си - дан ке чол - мас - ман

p

pp

poco dim.

sub. pp

Оймомо

Коплон

mp Ха - лос эт - гим бу дard - лар - дан бо - бо - си - дан

а - зо - би - га *mp* Ха - лос эт - гим бу дard - лар - дан мо - мо - си - дан

ке - чол - мас - ман

mp

ке - чол - мас - ман

ке - чол - мас - ман

f ши - кас - та кул - ла - ринг до - дин у - зинг танг - рим

f ха - лос ай - ла бу дard - лар - дан мен ё - рим - дан



«Xojar ko'r hovlisi»

5 - ko'rinish

(Qoplon va Oymomo Xojar ko'rning xovlisi tashqarisida.)

Qoplon: Hojar ko'rnika nimagada keldik o'zi.

Oymomo: Unday demasin. Hojar ko'rni folchimisan-folchi deydilar. Baloni biladi deydilar.

Qoplon: Hojar ko'r go'rni biladi, ochiq lahatni biladi. O'z oti o'zi bilan Hojar ko'r bo'lsa.



Oymomo va Xojar ko'r.

(Ichkari tim qoroong'u, sekin Momosi kirib kelib bo'sag'ada serryib turadi, o'tirishinida turishinida bilmaydi buni sezib turgan Xojar ko'r)

Xojar ko'r: Kel, Aynam, kel, manovi yerga o'tir.(Momosi ko'rsatgan joyga cho'k tushadi, yerga qarab o'tiradi) Emin-erkin o'tiraver, Aynam, bu yer tovuq ferma emas. Xojar ko'rning uyi.

Momosi: (Dovdirab) A...

Xojar ko'r: Bu yer Xojar ko'rning uyi, tovuq ferma emas. (Momosi hang-mang bo'ladi.) Tovuq qoqolashini yaxshi ko'raman, Xo'roz qichqirishini undan ham yaxshi ko'raman. Xo'rozlar meni azonda uyqudan uyg'otadi. Shu bois, ko'p ko'p tovuq boqaman. Soatga ishonmayman. Soatda jon yo'qda. Joni yo'q nimaga ishonib bo'ladimi!... (Xojar ko'ylagi yoqasini ko'tarib-ko'tarib shamollatadi) Ha otda keldilaringmi Aynam.

Momosi: Ha...

Xojar ko'r: Ot tuyog'ini tosh ursa, Xojar ko'r aybdor emas, Aynam.

Momosi: (Yuzlarini yerdan oladi) Birov sizni aybdor dedimi...

Xojar ko'r: Dedida, Aynam, Xojang dedi-da! Xojar ko'r go'rni biladimi dedi-da! Xojar ko'r biladi, Aynam, ha, biladi! Xojar ko'r go'rniyam biladi, yerniyam biladi!... (Bir pas labini qimirlatib o'ylanib turib) Nimaga tumoring yo'q, Aynam?



Momosi: Bor.

Xojar ko'r: Qani, qani?

Momosi: Mana. (Yoqasini ko‘radi , kamzilini yechadi, ichini ko‘radi yo‘q.)Hozir hozir Mana... Mana... (Chap qo‘ynini ko‘radi yo‘q . Momosi lol bo‘lib qoladi)

Xojar ko‘r: Ana ko‘rdingmi, Aynam? Xojar ko‘r biladi, ha ko‘zi ko‘r bo‘lsayam Xojar ko‘r biladi! Xojar ko‘r odamzot ichidaginiyam biladi. (Bir pas labini qimirlatib turadi) Hay anavi miqdagi doyrani olib berib yubor,Aynam!



Hay, azizlar, avliyolar, ambiyolar... Qo‘lingdan bermasang, yo‘lingdan ber, yo‘lingdan bermasang, so‘zingdan ber!... Mag‘ribdan desammikin?... Mashriqdan desammikin?... (Biroz doyra bilan ishlab sekin to‘qdaydi) Foling kelmayapti, Aynam, nima balo, qarib qoldimmi deyman! (Yana doyrasini chala boshlaydi va ancha tezlashgandan kegin) A-u-uf!... Foling ana endi kelyapti, Aynam! Astag‘firullo o‘zinga shukir-ye! Aynam-ov, mendan o‘pkalab yurmagin tag‘in, bari ayb o‘zingda, ha o‘z ichingda!.. Taqdir peshana ekanda, Aynamov! Taqdir peshana ekan. (Momosini boshidan silab ovitgan bo‘ladi, joyidan narsalarni olib,toviqlarini haydab sekin chiqib ketadi.)

Momosi: Ey xudo! (**Ariya boshlanadi “Etma meni zor”**)



Ariya “Etma meni zor” ijrosi.

Этма мени зор

Б.Лутфуллаев

33 Andante ♩=66

Piano

34

mp бир ку - ри - ниб ме - ни таш - лаб кет - динг -
но - чор ди - лим гаш - лаб гаш - лаб

му бо - лам *mf* кур - ган - ги - на туш - ла - рим
куз - ла - рим - ни ёш - лаб - ёш -

— унг бул - мас - ми - ди болам *tr* бир ку - ри
лаб кет - динг - му куз - ла - рим

- ниб ме - ни таш - лаб кет - динг - му бо - лам
- ни ёш - лаб ёш - лаб

36

f ум - рим бу - йи йул - ла - ринг
бил - санг а - ғар сен - сиз мен -

mf

- да ку - зим ин - ти - зор
- га бу дун - ё хам тор

mf У - мид - вор - ман
ке - либ - ги - на

tr

у - мид - ла - рим бул - ма - син са - роб
кон - гин бо - лам эт - ма ме - ни зор

бир ку - ри - ниб ме - ни таш - лаб кет - динг -
о - на - лик - дан бе - бах - ра - манд эт - динг -

mp
p

му бо лам
му бо лам

Tempo I
pp

poco a poco dim.
sub. pp



Ariya “Etma meni zor”

«Bobosi Xudo bilan»

6 - ko’rinish

“Aybim nima” ariyasi bilan boshlanadi

Qoplon: (Sahnaning tashqarisidan ovozi eshitiladi.)

Ey xudo, sen o‘zi qayerdasan, qaylardasan? – Sen o‘zi bormisan! – Bor bo‘lsang, javob ber, yuzaga chiq. Mendayin bir sho‘rpeshona bandang holini ko‘r!

(Yotgan holda bir nuqtaga qarab, biroz o‘zini yig‘ishtirib olib, xudo bilan gaplashadi yalinadi-yolvoradi. Pastdan samiymiy) Ayt men bandangni nima uchun yaratding? Shu bechora – da dunyoda yursin, shu g‘aribda o‘z kunini o‘zi ko‘rib yursin, deb yaratdingmi? Unda, men bandangnida xor qilmada ey xudo, men bandangnida yolg‘iz qilmada, ey xudo!



Bandangni yarat – yarat, pushti kamari bilan yaratda ey, xudo!
(Biroz o‘ylab turib) Ey xudo, esimni taniganimdan buyon xudoga sig‘inib keldim, xudoga topinib keldim, xudoga ishonib keldim.

Shunday ekan, har ne qilsang qil pushti kamarli qil-da eyo xudo!
(Jaxil bilan, katta - katta) Dunyoda necha – necha podshohlar o‘tdi, necha – necha hokimlar o‘tdi, necha – necha kattalar o‘tdi. Pushtsiz umrim mobaynida ko‘p – ko‘p podshohlardan qaytdim, ko‘p – ko‘p kattalardan qaytdim. Ammo – ammo yolg‘iz sendan qaytmadim, ey xudo! Dilimda-da xudo bo‘ldi, tilimda-da xudo bo‘ldi.

(Past ovozda) Shunday ekan har ne qilsang qil pushti kamarli qil-da ey xudo!

(Jaxl bilan tez, ovozini sekin balandlatib boradi) Bandalaring qay bir podshohlarga sig‘inmadi, bandalaring qay bir kattalarga sig‘inmadi. Bandalaring nimalarga topinmadi....

Bandalaring dinidan qaytdi, bandalaring xudosidan qaytdi, bandalaring iymonidan qaytdi. Sen aynan ana shu bandaligingni zurriyatli qilib yaratding, ey xudo! Ojiz qolmishlarim, chor – nochor qolmishlarim,

xokisor qolmishlarim –ey xudo o‘zing madad ber! – dedim. Ey partiya o‘zing saqla, ey komsamol o‘zing madad ber demadim. Ammo shunday deguvchilar bo‘ldi. Bandalaring shu darajalarga bordi. Sen kelib – kelib, aynan shu bandalaringni zurriyatli qilib yaratding, ey xudo!



(Sekin shoshilmasdan) Men bandangni shayton yo‘ldan ozdirgan vaqtlar bo‘ldi, shayton yomon yo‘lga boshlagan vaqtlar bo‘ldi. Shunda o‘zimga – o‘zim!

- Ey banda, xudodan qo‘rq! – dedim, yo‘ldan qaytdim.

- Aslo! Aslo.

- Ey banda partiyadan qo‘rq! Ey banda komsomoldan qo‘rq demadim.

(juda ezilib ketgan) Ammo shunday deganlar bo‘ldi. Dindan qaytmishlar nechov bo‘ldi, xudodan qaytmishlar nechov bo‘ldi!

(Ko‘ngli qolib) Sen aynan ana shularga zurriyat berding, ey xudo! Qator – qator zurriyat berding. Meni bo‘lsa ... men bandangni bo‘lsa zurriyatsiz qilding ey xudo!

(Jim qoladi, birozdan so‘ng o‘ziga kelib) Chin bilib, bilmayin gunoh qilib qo‘ydim. Dardimni birovga aytolmadim. Dard bo‘lsa iymonim kuydira berdi. Shunda men gunohlarimdan forig‘ bo‘lish uchun tavba – tazarru qildim.

Ey xudo o‘zing kechir! – dedim. Aslo! Aslo.

Ey partiya o‘zing kechir! Ey komsamol o‘zing kechir! – demadim.

Ammo shunday deganlar bo'ldi. Ko'p – ko'p bo'ldi, mo'l – mo'l bo'ldi! Men bo'lsam dilimda-da xudoni qo'ymadim, tilimda-da xudoni qo'ymadim! Men yolg'iz xudoni dedim!

(Bor budi bilan to'kilib ketadi) Shunday ekan, bir sodiq bandangni bunchalar xo'rlama-da, ey xudo! Bir sodiq bandangni bunchalar oyoq osti qilma – da ey xudo!

(Zo'rdaniga o'zini majburlab) Har ne qilsang qil, pushti kamarli qil – da, Ey xudo... (“Aybim nima” ariyasi boshlanadi. Tugallanishiga Xizr sahnada paydo bo'ladi.)



42

Айбим нима

Andantino ♩ = 69

Piano introduction for measure 42, featuring a 2/4 time signature and a tempo of Andantino (♩ = 69). The music is written for piano with a treble and bass staff. The treble staff begins with a *mp* dynamic marking. The bass staff features a series of chords and moving lines.

Vocal and piano accompaniment for measure 42. The vocal line is in the treble staff, starting with a *mp* dynamic marking. The piano accompaniment is in the bass staff, starting with a *mp* dynamic marking. The lyrics are: ай-бим ни-ма би-лол-май-ман ху-до-йим У-зинг айт-гил не-дур-ме-нинг гу-но-хим.

43

Vocal and piano accompaniment for measure 43. The vocal line is in the treble staff, starting with a *mf* dynamic marking. The piano accompaniment is in the bass staff, starting with a *mp* dynamic marking. The lyrics are: йул кур-сат-гин бу но-то-вон бан-данг-га На-хот сен-га.

Vocal and piano accompaniment for measure 44. The vocal line is in the treble staff, starting with a *mf* dynamic marking. The piano accompaniment is in the bass staff, starting with a *mf* dynamic marking. The lyrics are: си-гин га-ним ху-до-йим йул кур-сат-гин бу но-то-вон бан-данг-га. The piano accompaniment includes the instruction *poco a poco cresc.* and *cresc.*

45 Tempo I

ай - бим ни - ма би - лол - май - ман

mf *mp*

ху - до - йим йул кур - сат - гин' бу - но - то - вон бан - данг - га

poco a *poco cresc.* *mf* *cresc.*

f *pp*

Poco rit.

Xizr: Ha bolam, adirlardan ketmay qolding, nima, biror sehri bormi?

Bobosi: (Otamiz ko'ngliga taxlika tushdi! "Kim bo'ldi bu mo'ysafid? Deya o'yladi.) Assalomu aleykum!

Xizr: Va – aleykum, bolam, va – aleykum! O'tir, turish darkor emas, o'tir. Men bir yo'lovchi odamman.

Bobosi: (Qoplon cholga sinchiklab – qaradi bir fikrga kelolmay). Siz Samad bobo emasiz?

Xizr: (bosh chayqadi.)

Bobosi: Ha – a, bildim, bildim! Siz Xasan Mirobsiz. Tog'dan suv yoqalab kelyapsiz. Toshloqda sel kelishidan qo'rqib, qir oshib kelyapsiz.

Xizr: (Chol qah-qah urdi. Bulutlar, adirlar kulgidan zirrillab ketdi.)

Bobosi: Bo'lmasa kimsiz? Aytingda odamni qo'rqitmay! (otamiz chol yoniga keldi.) Qani omonmisiz, esonmisiz... (otamiz chol qo'lini kaftlariga oldi, chol seskanib qo'l tortdi, otamiz cholni tanidi: Xazrati Xizr bobo! Boisi boshmaldog'ida suyagi yo'q. O' kishini boshmaldog'i suyaksiz edi! Otamiz quvondi! Yayradi.)

Xizr: (Jaql bilan so'yladi) Men yo'liqqan odamlar ichida eng nomaquli sen bo'lding.

Bobosi: (qo'rqib) Men nima qildim, Xazrati Xizr Bobojonim.

Xizr: (Jaxildan tushmasdan) Qo'l uzatib odabsizlik qilding.

Bobosi: (Yig'lab yuboradi) Aybimdan o'ting, xazrati Xizr bobojonim, aybimdan o'ting (Umrida birinchi marta... birinchi martda inson oldida tiz cho'kdi, kaftlarini insonga cho'zdi yuzlaridan marjon – marjon yoshlar sizdi dardini yorib – dardini yorib qo'l cho'zdi) Hazrati Xizr buvajonim! Sadag'angiz ketayin, Hazrati Xizr buvajonim, meni avf eting! Men tabib deb chopdim, folchi deb chopdim, nodonlik qildim, ko'rlik qildim! Avf eting, Xazrati Xizr buvajonim! Aslida sizni yo'qlashim darkor edi! Men qayoqqa borishimni bilmadim – da, qayerda ekaningizni bilmadim –da, Hazrati Xizr buvajonim! Qola bersa xuzuringizga borishga haddim sig'madi! Men bir faqir odam bo'lsam, qanday – da boraman! Endi, ovvora bo'lib o'zingiz kelibsiz, bovojonim! Qulliq, bobojonim qulliq! Hazrati Xizr bobojonim men bir sho'r peshona bandaman! Tirnoqqa zorman! Eshitayapsiz- mi? Tirnoqqa zorman! Nima tilasangiz tilang

manovi chaponimgacha sotaman, aytganingizni aytgandayin bajo keltiraman! Menga bir farzand bersangiz bo'ldi, hazrati Xizr bo'vajanim!...

Hazrat: Menga mol dunyo darkor emas.

Bobosi: (ishoch bilan, o'zini qo'lga olib) Unda menga bir farzand bering hazrati Xizr bo'vajanim! Dunyodan qo'li ochiq ketmayin hazrati Xizr bo'vajanim! Mayli! Bizga bittagina Xushvaqt bo'lsa – da bo'ladi! Faqirga palov! Bilasiz – mi, yo'q – mi Xushvaqt yo'lida ko'zimiz to'rt, Hazrati Xizr bo'vajanim.

Hizr: (Bosiq ovozda Pastdan) Dunyodan ko'p noliy berma...

Bobosi: Bizni bu dunyoga bog'lab qo'ygan emas, hazrati Xizr bo'vojonim! Bir kunmas bir kun tanamiz soviydi. Shunda kim bizni isi-chirog'imizni qiladi? Kim otamlab yig'laydi? Kim enamlab yig'laydi? Birov, hech bo'lmasa birovgina otamlab yig'lasa ekan, birovgina enamlab yig'lasa ekan hazrati Xizr bo'vojonim.

Hizr: (Siniq ovozda) Boriga shukur qil.

Bobosi: Izidan o'g'il qoldirib, otasi uchun motom tutmagan erkak, erkak bo'ptimi! Orqasidan qiz qoldirib, enasi uchun qora kiydirib, aza ochdirmagan ayol, ayol buptimi. Dunyoga keldim deb yurmasinlar. Hazrati Xizr bo'vojonim! Ko'pga bergan tirnoqni bizdan darig' tutmang! Menga rahmingiz kelmasa da, enasiga rahmingiz kelsin, Hazrati Xizr bo'vojonim! Poshikasta kuyib-kuyib, adoyi tamom bo'ldi, o'lik bo'lib go'rda yo'q, tirik bo'lib to'rda yo'q hazrati Xizr bo'vojonim!

Xizr: (Orqasiga o'girilib ketmoqchi bo'lib) Men senga farzand berganman.

Bobosi: (Yalinib yolvoradi, ovozi yanada qaltirab, ovozini balaniroq qilib) Berganingiz yo'q hazrati Xizr bo'vojonim, berganingiz yo'q! Siz meni birov bilan adashtiryapsiz, hazrati Xizr bo'vojonim! Usta Qulmatga kelbat beraman, o'sha deyayotgandirsiz – da? Chin, Usta Qulmatda farzand bor oltita! Menda bo'lsa birov da yo'q, hazrati Xizr bo'vojonim!

Xizr: (Bobosiga tik qarab) Qanday otasanki, o'z farzandingni bilmaysan? Hali ko'p – ko'p farzand beraman.

Bobosi: A? Ko'p –ko'p farzand beraman dedingizmi? Qachon – qachon? (Hazrati Xizrga egiladi.) Qulluq Hazrati Xizr bo'vojonim, qulluq! (Tomoshabinlar tomonga egildi. Bu vaqtda Hazrati Xizr yo'q bo'ladi.)

Qulluq, qulluq! Qani endi ko'p – ko'p bo'lsa! O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qilg'i, Hazrati Xizr bovojonim!... (Hazrati Xizr ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Orkestorda musiqa boshlanadi)

«Momosi ketish oldidan»

7- ko'rinish

Momosi: Men nimalar qilayapman o'zi? Bari ayonku, nega u kishim sezmaydi. Aytishim kerak, lekin qanday? Unga bildirmay Denovga borib tekshirtirdim, ammo u-da Termezdagi do'xtirni gapini aytdi. Nega bilmaganga oladi? Nega? nega? Nega?... (“Xush endi” ariyasi orkestorda chalina boshlanadi)



Хуш энди

46

Andante ♩=66

Най solo

Poco cresc. mp

Гижжак solo pp

47

р Бош - ни ол - га
Е - тар жой - им

pp

ке - тар бул - ди бе - кан - гиз Кай куз би - лан
ту - шак - ла - рим хайр эн - ди Хам - рох - ла - рим

бо - кай кел - са ху - жан - гиз
жон вор - ла - рим хайр эн - ди

48

mf Ши - рин ши - рин
Сиз - дан ай - ри

Темпо I



First system of the musical score. The vocal line (treble clef) begins with a rest, followed by a repeat sign and the lyrics: *mp* Йиг - лаб йиг - лаб ке - тар бул - ди. The piano accompaniment (grand staff) features a melodic line in the right hand and a harmonic line in the left hand, both starting with a rest and then moving into a steady eighth-note pattern. A dynamic marking *p* appears in the piano part.




Second system of the musical score. The vocal line continues with the lyrics: бе - кан - гиз, *p* куй - иб куй - иб ке - тар бул - ди. The piano accompaniment maintains the eighth-note pattern. A dynamic marking *p* is present in the piano part.



Third system of the musical score. The vocal line includes the lyrics: бе - кан - гиз, *pp* алп ков - мат - ли ко - ра ку - зум. The piano accompaniment continues with the eighth-note pattern. A dynamic marking *pp* is present in the piano part.



Fourth system of the musical score. The vocal line has the lyrics: хуш эн - ди. The piano accompaniment features a melodic line in the right hand with a slur and a dynamic marking *pp*, and the same eighth-note pattern in the left hand.



Oymomo (Momosi ariyaning yakunlash arapasida birinchi planga ichkariga kirib ketada Bobosi kirib keladi.)

Bobosi: Momosi, ha Momosi. Momosi, Momosi... (yugirib kirib ketadi va Momosini qo‘lidan tortib olib chiqadi.) Nim qilayapsan, Nimalar qilyapsan. Momosi, bu nima qilganing!, (qo‘lidagi arqonni ichkariga otib yuboradi.) Vaxshivorlik birov, yetmishida farzand ko‘ribdi. Ya‘ni tag‘in,

o'g'il emish! Ana ko'rding – mi, erta - kechi bo'lmaydi. Sabr qilsang g'o'radan xolva bitadi. Sabrning tagi oltin, momosi.



Momosi: (Noiloj bildirmay) Aytgani kelsin bovosi. Bobosi...

Bobosi: (Gapini bo'lib, eshitmay.) Momosi bilasan, hazrati Xizr suygan bandalariga yo'liqadilar. Menga yo'liqdilar, farzand beraman dedilar. U kishi yuzlarimdan o'tolmaydilar, momosi. Odamlarning yuzi issiqda momosi.



Momosi: (Xursand bo‘lib) Aytganlari kelsin bovosi.

Bobosi: (Jiddiy) Momosi, bug‘irsoq, yog‘li patir qil. Ertaga ishga olib boramiz. Arpaga o‘roq tushar ekan. Mehnat hayiti.

Momosi: (Istar istamas. Bobosiga yoshligidagidek erkanib) Uff, ishning oxiriyam bormikan-a, bobosi?

Bobosi: Tirikchilik, Momosi, tirikchilikda. Odamning yuzi chidamaydi. Yana tag‘in Xushvaqt hayollayapdi. Xushvaqt o‘rnigada mehnat qilmasak bo‘lmaydi. Odamlardan uyat. Xushvaqt kelsin, o‘zimiz bilamiz.

Momosi: (Aytayotgan so‘zlariga ishonib, o‘zlari voqiya ichiga kirib ketadi.) Kattalar ishlatmay qo‘yar.



Bobosi: E, qo‘ymay nima? Xushvaqtday ulimiz bo‘ladi-da kattalardan qo‘rqamiz-mi? Birovi g‘ing deb ko‘rsin! Hay, ko‘p javrama, ana ulimiz ishlayapti, deymizda. Qolaversa, Xushvaqt ulimizni o‘ylaydi. Chol kampirga indamanglar, uli xafa bo‘ladi deydi. Ulimizning yuz-xotirini qiladilar, momosi.

Momosi: (ko‘zida yosh qalqib) Chin, bobosi chin! (**“Pardivol” duetini Arkestr chalib boshlaydi**)



Bobosi: (Berilib, musiqa fonida, ishoch bilan) Men senga aytsam Momosi, Yaratganning o‘zi beraman desa, qo‘shqo‘llab beradi. Sendan, mendan so‘rab o‘tirmaydi. Ma, ol qulim deydi. Mana ko‘rasan Momosi...

Momosi: (Ko‘zining yoshini yashirib) Aytganlari kelsin bobosi.

Bobosi: Momosi, shu o‘ladirgan dunyoda, kel bir qo‘shiq aytib berayin, o‘ynaysanmi.

Momosi: Siz - a...

Bobosi: Ha ... esachi.

Momosi: o‘ynaganim bo‘lsin bobosi. (“Pardivol” dueti boshlanadi)



“Pardevol” dueti ijrosi

Коплон

mf дир - ди бо - ра дир - ди бор дар - ди - га дар - мо - ни бор
 пе - шо - на - си - га бит - ган коп - лон де - ган ё - ри бор

Piano

mp

жон

Оймомо

mp пар - де - вол - ни гар - ди - бор жон

mp

mf

Оймомо

Коплон

жон

хи - зир__ бо - бом е - та - ди
ва - фо кил - май не - та - ди

Оймомо

жон

pp

poco dim.

sub.pp

Коплон

mf ё - рим ка - но - тим ме - нинг жон
бу но - ги - рон кунг - ли - га

хам бо - ру йу - гим ме - нинг жон
мал - ха - му до - рим ме - нинг

§ Коплон

пар - де - вол ни гар - ди - бор

Оймомо

Коплон

жон *p* биз - ни о - ху но - ла - га
у - зи бер - ган ваъ - да - га

morendo

pp *poco dim..* *morendo*





Momosining o'limi...

8 – ko'rinish.

Hamsoya: (Sahnaning orqasida ovoz ketadi) Hamsoya? Hay hamsoya? (O'g'lini tilida aytadi)

- Ay momo, meni tebratib turing, enam non yopib kelsin.
- Katta bo'lsam, men ham qizingizning beshigini tebrataman.

Momosi: – Aytganing kelsin... (Sahnaga Momosi chaqaloqni ko'tarib kirib keladi)

Momosi chaqaloqni erkalata boshlaydi. Shunda chaqolaq mazza qilib kuladi.)





“Alla” ariyasi ijrosi

-Ha, kulishni-da bilasanmi? Kulishni-ya? (iyak siltab) - Kul, kula ber!.. (Momosi chaqaloqqa engashdi, dimog'i go'dak isini to'ydi. Umrida gullar, barglar, ko'katlar, taomlar isidan iskadi, Ammo... gudak isidan tarovatlisini, go'dak isidan hayotbaxshini ko'rmadi. Arkestrda “Alla” ariyasini boshladi.) Ay go'dak islari, go'dak islari – ay!.. Alla aytib berayinmi, kel bolam hozir senga alla aytib beraman. (Go'dak ko'zlari ilinib ketdi. Momomiz ko'zlarini yumib, beixtiyor dimog'ida alla aytdi.)

“Alla” ariyasi boshlanadi (Onamiz kafti bilan ko'kiraklarini siladi. Changalladi- changalladi... Chayqaldi- chayqaldi... chaqaloqni Hamsoyasining uyiga olib chiqib beradi va yiqilay deb turganida Bobosi kirib keladigan tomonga, eshikka qaraydi, Xor ijrosida gir aylanib Momosi shilq etib tushdi... svet yordamida yo'q bo'ladi.)

Xoral vaqtidagi plastik harakat



Qoplon: (Qorong‘ida ovozi eshitiladi) Voy, momosi... Momosi... Senga nima bo‘ldi, Momosi... Ko‘zingni och... Meni qo‘rqitmagin momosi...

Bobosi: - Momosi, mendan rozi bo‘l, momosi... Ko‘zingni och, momosi, mendan rozi bo‘l... Momosi

pp Ал - ла Ал - ла Ал - ла ё

Ал - ла *pp* Ах - ди бо - ра ах - ди бо - ра ал - ла - ё
Уй - ку - нанг хали вак - ти бо - ро

63

Ал - ла *pp* Ал - ла айт - ган э - нанг - ни - ё ал - ла - ё

Ал - ла коп ко - рай ган бах - ти бо - ро ал - ла - ё

Ал - ла ал - ла - ё Ал - ла ал - ла - ё

64

Ал - ла Даш - ту да - ла - да у - зум ал - ла - ё

Хас - ра - ту ар - мон би - лан

ал - ла Уз - га - ним - ни ким би - лар - о ал - ла - ё

Жон бер - га - ним

ал - ла ал - ла айт - ган э - нанг - ни - ё ал - ла - ё

pp

ал - ла коп ко - рай - ган бах - ти бо - ро ал - ла - ё

65

ал - ла ал - ла - ё ал - ла

ал - ла - ё ал - ла

Finalda, xaral ijro etiladi

Хорал

66 Andante ♩=66

S/A *ff* O, O,

Choro
T/B O,

67

O, *ff* O,

First system of a musical score. It consists of three staves: two treble staves and one grand staff (treble and bass). The key signature has three flats (B-flat, E-flat, A-flat). The first treble staff has a melodic line with eighth and sixteenth notes, starting with a slur. The second treble staff has a similar melodic line, also with a slur. The grand staff provides harmonic support with chords and single notes. A vocal line is indicated by the text "O," in the first measure of the first treble staff.

68

Second system of the musical score, starting at measure 68. It follows the same three-staff layout. The first treble staff has a melodic line with a slur and a fermata, with the text "O," below it. The second treble staff also has a melodic line with a slur and a fermata, with the text "O," below it. The grand staff continues with harmonic support. A dynamic marking of *mf* (mezzo-forte) is present in the first treble staff and the grand staff.

Third system of the musical score. The first treble staff features a melodic line with a slur and a fermata, with the text "O," below it. A dynamic marking of *mf* is present. The second treble staff has a melodic line with a slur and a fermata. The grand staff provides harmonic support. A dynamic marking of *mf* is present. A fourth-measure rest is indicated by a bracket with the number "4" above it in the first treble staff.

First system of a musical score. It consists of four staves: two vocal staves (soprano and alto) and two piano staves (treble and bass). The key signature has two flats (B-flat and E-flat). The vocal staves have lyrics "O,". The piano accompaniment features chords in the left hand and a melodic line in the right hand. A four-measure rest is indicated in the alto staff.

69

Second system of the musical score, starting at measure 69. It includes the same four staves. The vocal staves have lyrics "mp O," and "poco dim. O,". The piano accompaniment includes dynamic markings "mp" and "poco dim.".

Third system of the musical score. The vocal staves have lyrics "O," and "spp". The piano accompaniment includes the dynamic marking "spp".

(Qoplon Momosining qabriga keladi, Ariya Boqiylikka ketarman boshlanadi.)



“Boqiylikka ketarman” ariyasi ijrosi.

“Boqiylikka ketarman” ariyasi Бокийликча кетарман

52

Оймомо узокдан

pp O, —————

sub pp

53

Коплон

tr Не ки-ла - йин

p

су - ян - чи - гим сен э - динг йул - ла - ринг - га

First system of the musical score. It features a vocal line with a long note 'O,' and a piano accompaniment with chords and a moving bass line.

Second system of the musical score, continuing the vocal and piano parts.

55

Third system of the musical score, starting with the word 'Коплон' (Koplon) above the vocal line. The piano part includes a section marked *mf*.

Fourth system of the musical score, containing the final lines of the song with lyrics in both Cyrillic and Latin scripts.

шур пе - шо - на я - рат - ди
тер - мул - ти - риб ка - рай - ди

mf

mf ёш - ли - ги - миз хак - ки кел - гин мо - мо - си зар - до - ли - лар

mp

те - раб бе - рай мо - мо - си ту - шиб кет - ган

mp

ру - мол - ла - ринг у - чи - га ю - ра - гим - ни

56 Оймомо

ту- гиб бе- рай мо- мо - си *mf* О,

О, *mf* О,

57 Коплон

mp О,

57

f Гар кел - масанг бо - шим о либ кетар - ман *mf* из - ларим - га

кайт - масбулибке - тар - ман фо - ний дун - ём булди буткул корон - ги

йиглабийг - лаб бо кийлик га ке тар - ман *f* бо кийлик га ке тар - ман

58

Оймомо

mp О, О,

O,

59

Коплон

tr Бу ду-нѐ - дан туйб булдим нетар - ман ар мон ларим

дил да тугиб ке тар-ман так - ди рим дан куйб куйб ке тар-ман

60

Оймомо

Коплон

йул - ларинг - да буз-лаббузлаб кетар - ман *tr* Гар кел - ма - санг

бошим олиб ке тар-ман из - ла - рм - га кайтмасбулиб ке тар-ман

Solo
p

Poco a poco dim.
spp

morendo
spp
morendo



(Bobosi eslaydi. Qoplon va Oymomo uchrashuvi zapisdan eshitiladi,)

Qoplon: *Ko‘zlaringni yashirma Oymomo.*

Oymomo: *Keting, odamlar ko‘radi, keting.*

Qoplon: *Ko‘zlaringni bir ko‘rayin deb keldim.*

Oymomo: *Ko‘rishga mening ko‘zlarimdan o‘zgada ko‘zlar ko‘pdir.*

Qoplon: *Yo‘q. Har bandaning o‘z ko‘radigan ko‘zlari bo‘ladi. Sening ko‘zlaring meniki. Kelma, desang, mayli kelmayman.*

Oymomo: *Ko‘zlarimni deb kelmasangiz-da, Navro‘z sayliga keling....*

Bobosi: Oymomo, zardolilar g‘arq pishdi. Bizning zardolilarni bolalar to‘yib-to‘yib yeyishyabdi. Men senga aytib edim-ku, Xazrati xizr bobom va’dalarida turadilar deb. Men ularni ko‘rdim... Mana bizning bolalarimiz. Mana bizning nevaralarimiz. Bu adirlar bizniki! Bu oydinlar bizniki! (Oldinga birinchi planga o‘rtadan borib toxtaydi) Momosi, yur, ketamiz... Ana, bizning bolalarimiz! Ana bizning nevaralarimiz! Yur ketdik. Endi biz kelmaymiz...



TOMOM.

GLOSSARIY

Aktyorlik mahorati	- boshqa davr va muhitdagi obrazni aktyorning o'z ruhiy-jismoniy apparati orqali jonlantirish qobiliyati.
Aktyor	- drama, opera, balet, qo'g'irchoq teatri, sirk, teatr, kino, radio (inssenirovka, postanovka, montaj) va televideniyeda rollar ijro etuvchi shaxs, artist.
Aktrisa	- aktyor ayol.
Avanssena	- sahnaning old qismi, parda bilan orkestr o'rni oralig'idagi joy. Opera va balet, shuningdek, drama tomoshalarida parda oldida o'tadigan dekoratsiyasiz kichik sahnalarni ko'rsatish uchun xizmat qiladi.
Badiiy o'qish	- estrada san'atining bir turi, adabiy (she'riy, nasriy, dramatik) asarni omma oldida og'zaki ijro etish.
Butaforiya	- teatr spektakllarida haqiqiy narsalar o'rnida qullaniladigan, spektakl xarakteri va sahna talablari, imkoniyatlaridan kelib chiqib yasalgan mebel, bezaklar, kostyum detallari, turli idishlar va sh.k.lar.
Garderob	- 1. Kiyim-bosh osib qo'yiladigan taxmon. 2. Muassasa va teatrlarda kiyimlar yechib qo'yiladigan va saqlanadigan maxsus bo'lma, kiyimxona.
Grim	- aktyor qiyofasini, ayniqsa, yuzini o'ynaladigan rolga mos qilib maxsus bo'yoq, yasama soch- soqol, plastik massalar va sh.k.lar vositasida o'zgartirish san'ati, shuningdek, ana shu vositalarning jami.
Debyut	- aktyorning birinchi marta sahnaga chiqishi, tomosha ko'rsatishi.
Dekoratsiya	- sahnada ko'rsatilayotgan voqea o'rnini aks ettirishga, spektaklning g'oyaviy ma'nosini ochishga xizmat qiluvchi sun'iy manzara, badiiy jihoz. Dekoratsiya rang-tasvir, grafika

arxitektura, sahna texnikasi, kinoprojektsiya va shu kabilarning tasviri vositalari yordamida yaratiladi.

- Kabuki** - yaponcha chekinish, kechish.XVII asrda hozirgi teatr texnikalari va dekoratsiyalariga yaqin bo'lgan yapon teatri. Uning manbai komediantlar va raqqoslar bo'lib, ayollar rolini erkaklar o'ynagan.
- Komediya** - ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni, kishilardagi yaramas xususiyatlarini kulgi vositasi bilan fosh etuvchi quvnoq, hushchaqchaq xarakterdagi dramatik asar.
- Musiqqa** - 1. Emotsional-g'oyaviy mazmunni ovozda badiiy obrazlar orqali ifodalovchi san'at turi. Masalan Vokal musiqqa, simfonik musiqqa. 2. Shu san'atning cholg'u bilan ijro etiladigan tugal asari, kuy. Masalan: ashula musiqasi.
- Musiqali teatr** - sahna xatti- harakati va musiqqa uyg'unligi asosiga qurilgan qo'shiq va raqs elementlari ishtirok etgan (opera, balet, operetta, myuzikl) teatr.
- Oliy maqsad** - rejissyorning, nega aynan shu pesani sahnalashtirayotgani, uning yordamida nima demoqchiligi, tomoshabinda qanday fikr va tuyg'ular uyg'otishi kerakligini aniqlash mahsuli.
- Pesa** - 1. Teatrda qo'yish uchun mo'ljallangan dramatik asar. 2. Yakkanavoz sozanda yoki cholg'uchilar ansambli uchun yozilgan kichik musiqqa asari.
- Rejissyor** - korfarmon. Teatr va kinoda dramatik yoki musiqali asarlarni sahnalashtiruvchi hamda filmni suratga olish jarayonini boshqaruvchi.
- Repetitsiya** - teatr, sirk, musiqqa va sh.k. tomoshalarni ommaga ko'rsatish oldidan sinab ko'rish, mashq qilish, tayyorlash jarayoni.
- Asosiy (general)** - tomoshabinga taqdim etilishdan oldin tayyor tomoshaday ko'riladigan eng so'nggi repetitsiya.

repetitsiya

Rol	- aktyor tomonidan sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz.
Syujet	- badiiy asarning asosiy mazmuni va undagi voqea yoki o‘zaro uzviy bog‘langan va ketma-ket rivojlanib boradigan voqealar yig‘indisi, tasviriy san‘atda tasvir buyumi.
Amaliyot	- nazariy bilimlarni ishlab chiqarish jarayonida qo‘llash
Amaliy mashg‘ulot	- darslarda biror mavzu va bo‘limlar o‘rganilgandan so‘ng, nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun talabalar bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida o‘quv reja asosida tashkil etiladigan mashg‘ulot
Ijodiy yondoshuv	- ta’lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat, mustaqil ravishda bajarilayotgan ishning yangi yo‘nalishlarini topishga undash jarayoni
Ijodiy qobiliyat	- yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini his qilish, muammoni ifodalay olish, g‘oyani ilgari suradigan bilimlarni ishga sola bilish, yangi obrazlarni yaratish va h.k.
Intellekt	- (<i>lotin.</i> Intellectus – aql-idrok) – insonning bilish va fikrlash qobiliyati, tafakkur, aql-idrok
Ko‘nikma	- inson o‘zidagi mavjud bilimlari asosida biron maqsadga erishish yoki biron ishni bajarishda ma’lum usullarni qo‘llay bilishi, kerakli harakatlarni qila olish yo‘llarini egallashi
Mahorat	- har qanday sohada yuksak darajadagi egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda mukammal qo‘llash
Metodika	- (<i>yunon.</i> methodike) – biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi

Inovatsiya	- ta'lim jarayoniga sezilarli, ijobiy samara beruvchi yangiliklarni kiritish
Adaptatsiya	- moslashuv
Analitik bilish	- faktlar va voqelikni nazariy taxlil qila bilish
Ideal	- oliy shakllanish, izlanishning oxirgi maqsadi
Temperament	- shaxsning o'ziga xos qobiliyati, ruhiy xatti-harakatning har tomonlama o'sishini xarakterlovchi iqtidor
Verbal	- Og'zaki, so'z bilan ifodalash
Gipoteza	- nazariy asoslash, ammo to'g'riligini isbotlashni talab etuvchi omil
Diskussiya	- O'zaro suhbatda, matbuotda, bahsda muammoni hal qilish muhokamasi. O'qitish uslubida fikr almashishga asoslangan va aniq muammoni hal qilishdagi jarayon
Ideologiya	- G'oya va dunyoqarash tizimi
Konflikt	- bir - birining maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun kurashga olib keluvchi omil, qarama-qarshilik, to'qnashuvga olib keluvchi omil
Shaxs	- ruhiy, ma'naviy mohiyati to'liq inson; har taraflama rivojlangan va barchaga o'rnak bo'ladigan, boshqalarni o'z ortidan ergashtira oladigan inson
Motivatsiya	- ichki uyg'onish
Pedagogik texnologiya	- pedagogik faoliyatda, aniq uslub va uslubiyatda talabalar tarbiyasida pedagog qo'llaydigan uslub (ta'lim saviyasi)
Empatiya	- partnyorning emotsional holatini anglash
Hissiyot	- berilgan shart-sharoitda haqqoniy xatti-harakat qilish, fikr yuritish
Ichki ko'rish	- aktyorning diqqati qaratilgan manba to'g'risidagi o'y-fikri

Mimika	- sahnaviy harakat jarayonida aktyorning tabiiy, samimiy ifodali yuzi
Shleyf	- shaxs tomonidan bajariladigan yoki bajarib bo‘lingan ishdan keyin qaytib kelish, u bilan bo‘lib o‘tgan voqea yoki hozir sahna ortida bo‘layotgan voqea
Muloqot	- aktyorning suhbatdoshi yoki sahnadoshi bilan o‘zaro munosabatga kirishuvi
Realizm	- hayotiy xaqiqatni ijodda aks ettirishning badiiy uslubi
Manok	aktyor ijodining qo‘zg‘atuvchisi
Intuitsiya	- san’atda ong osti, ong usti va beixtiyor topilgan ijodiy yechim. Ong ostida qilingan ish; ijodiy kashfiyot (obraz, nazariya, kutilmagan yangi fikrlar va h.k.)
Jest	- Qo‘l harakatlari
Mizansahna	- xatti-harakat, dialog, voqea, munosabat va qarama-qarshilikning plastik (nafis) timsoli
Shtamp	- (ko‘chirma) – aktyorning “misi chiqqan”, “chaynalgan” xatti-harakatlari, o‘zining yoki boshqalarning xulq-atvorini mana shu tarzda ko‘chirib ko‘rsatish
Dekoratsiya	- spektaklda berilgan shart-sharoitning badiiylashgan moddiy ko‘rinishi
Improvizatsiya	- Badihago‘ylik; aktyorning o‘z nomidan obrazni erkin talqin qilishi
Kechinma	- aktyorning ichki hissiyoti bilan rol hissiyotlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi
Tub ma’no	- So‘z ostiga yashiringan ma’no – harakat, xohish, istak
Teatr etikasi	- aktyorlarning yuksak axloqiy, madaniy mehnati va munosabati. Teatr odobi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva M. "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik maxorati" – "Tafakkur qanoti" nashriyoti-T.: 2014.
2. Mahmudov J. "Saxna makon kompozitsiyasi" – Bilim nashriyoti, T.: 2005.
3. Maxmudova X. "Saxnaviy asarning xatti-harakatli tahlili"- :Lesson Press" nashriyoti, T.:2015.
4. Stanislavskiy K. S. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". – Badiiy adabiyot, (qayta nashr) T.:2010.
5. Ansimov G.P. Rejisser v muzikalnom teatre. VTO. -M., 1980.
6. Asafev B. Muzikalnaya forma kak protsess. /Sb. Intonatsiya, kn. 2. -M.-L.: Goskomizdat, 1947.
7. Blinova M. Nekotoriye voprosi muzikalnogo vospitaniya shkolnikov. -M.: Pedagogika, 1975.
8. Vanslov V.V. Sintez iskusstv v opernom spektakle. -M., 1964.
9. Zaxava B. Masterstvo aktyora i rejissera. -M.: Prosvesheniye, 1978.
10. Kaplan E.I. Jizn v muzikalnom teatre. -L.: Muzika, 1969.
11. Knebel M.O. O nekotorig voprosax metodologii Vl.Nemirovicha-Danchenko. - M.: Iskusstvo, 1954.
12. Kristi G. Rabota Stanislavskogo v opernom teatre. -M.: Iskusstvo, 1969
13. Petrovskiy A.V. Rol fantazii v razvitii lichnosti. -M.: Znaniye, 1961.
14. Rumyansev P.I. Rabota Stanislavskogo nad operoy «Rigoletto». -M.: Iskusstvo, 1955
15. Rumyansev P.I. Stanislavskiy i opera. -M.: Iskusstvo, 1969
16. Stanislavskiy K.S. Sobr. soch. v 8 tt. -M.: Iskusstvo, 1953
17. Stanislavskiy K.S., Nemirovich-Danchenko Vl. Ob iskusstve aktyora-pevsa. -M.: Iskusstvo, 1973
18. Tovstonogov G.A. O professii rejissera
19. Felzenshteyn V. O muzikalnom teatre. -M., 1984

20. Shalyapin F.I. Maska i dusha. -M.: Iskustvo, 1976
21. Yakobson P.M. Psixologiya xudojestvennogo tvorchestva. -M., 1971.
22. Stanislavskiy K. S. “Aktyorning o‘z ustida ishlashi”. –T.: Badiiy adabiyot, 2010.
23. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. “Aktyorlik mahorati”. T.: Fan va texnologiy. T.: 2012.
24. Usmonov R. Rejissura. –T.:1997.
25. Sayfullayev B.”Tomosha san’ati tarixi va nazariyasi”-“Fan va texnologiya” nashriyoti; 2014y.
26. Lenard Petit. The Michael Chekhov Handbook. 2015.
27. Djon Benedikt. “Aktyorning o‘z ustida ishlashi” (K.S.Stanislavskiy) – 2-qism. Routledge. 2008y.
28. Abdullayeva M. ”Dramatik teatr va kinoda aktyorlik maxorati” –“Tafakkur qanoti” nashriyoti-T.: 2014.
29. Maxmudov J. Maxmudova X.-.-“Aktyorlik maxorati” . Lesson Press .nashriyoti - T., 2016 y.

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
I BOB	
Asar mavzusi va uning dolzarbligini belgilash.....	9
1.1 K.S.Stanislavskiy sistemasidagi aktyorlar tarbiyasi va roli bo'yicha tahlil.....	9
1.2 Teatr san'atining o'ziga hos xususiyatlari.....	15
1.3 «Nodirabegim» diplom spektaklida ijro qilingan rollar talqini va tahlili.....	18
II BOB	
Sahnaviy xatti – harakat. aktyor san'atining quroli.....	45
2.1 Aktyor ijodi va xatti - harakat tahlili.....	45
2.2 Sahnaviy asarda voqealar tizimi.....	53
2.3 Berilgan shart-sharoit va uning xususiyatlari. Diplom spektakli ustida ishlash jarayoni.....	66
Glassariy.....	176
Foydalanilgan adabiyotlar.....	181

USNATOV RASHID JAKSILIKOVICH

BADIIY ASARNING SAXNAVIY TALQINI VA TAXLILI

Aktyorlik san'ati (turlari bo'yicha) magistratura ta'lim yo'nalishlari
uchun darslik